

**M.BEHBUDIY NOMIDAGI SAMARQAND VILOYAT
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARI
UCHUN
TESTLAR**

Samarqand - 2010

Tuzuvchilar: R.Jo‘raqulov (har bir variantning 13,14,15,16,17,18,28 savollari),
G.Astanova (7,9,10,11,21,26),
J.Bo‘stonqulova (12,19,20,23, 29,30),
K.Kubayeva (1-6-variantlar),
D.Rabbonayeva (8,22,24,25,27)

Mazkur testlar to‘plami kirish-chiqish imtihonlarini o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, u maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasining 2010-yil 4-yanvardagi 1-sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan.

© Viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti, 2010-yil

1-variant

|1 Berilgan she'riy misrada nechta fe'l so'z turkumi bor?

Ayni yoz – saraton chog',
Suluvlangan dala, bog'.
Yiltillagan husaynga boq,
Donasidan go'yo bol tomar.

1. 4 ta 2. 3 ta 3. 2 ta 4. 5 ta

|2 "Kishining go'zalligi uning tilidan bilinur".

Berilgan gapdan egani aniqlang.

1. Kishining 2. Uning 3. Tilidan 4. Go'zalligi

|3 Berilgan gaplarning qaysi birida undalma ishtirok etgan?

1. Kitob, daftaringizni toza tuting 2. Kitob, mening do'stim
3. Kitob bilim manbai 4. Kitob, daftar – o'quv quroli

|4 Burun undoshlari ishtirok etgan qatorni toping.

1. r, p, m 2. b, p, f 3. m, n, ng 4. k, q, g, g'

|5 Qaysi qatordagi maqolda antonim so'zlar ishtirok etgan?

1. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh 2. Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi
3. Mehnat baxt keltirar 4. Ona bilan bola – gul bilan lola

|6 Quyidagi gapni sintaktik tahlil qiling.

Akmalning xati sinfimizda saqlanyapti.

1. Aniqllovchi – ega – to'ldiruvchi – kesim 2. Ega – to'ldiruvchi – aniqllovchi – kesim
3. Ot – ot – ot – fe'l 4. Ega – aniqllovchi – to'ldiruvchi – kesim

|7 O'quvchilarni 6-7 yoshdan maktabga qabul qilish qaysi hujjatda ko'rsatilgan?

1. Kadrlar tayyorlash «Milliy dasturi»da; 2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda; 3. DTSda; 4. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida;

|8 O'zbekiston pilla yetishtirishda dunyoda nechanchi o'rinda?

1. AQShdan keyin ikkinchi 2. Yaponiya va Xitoydan so'ng uchinchi
3. AQShdan keyin to'rtinchi 4. AQShdan keyin birinchi

|9 Xo'jalikda 120 sr xashak tayyorlandi. Sigirlar uchun hamma xashakning $\frac{1}{3}$ qismi, otlar uchun $\frac{1}{10}$

qismi, qolgani qo'ylar uchun ajratildi. Qo'ylar uchun qancha xashak ajratilgan?

1. 40 2. 68 3. 52 4. 78

|10 Sanjarning yoshi buvisining yoshidan 8 marta kichik. Sanjarning otasi buvisidan ikki marta kichik. Agar Sanjarning buvisi 64 yoshda bo'lsa, bola va otaning yoshlari nechada?

1. 8 va 32 yoshda 2. 7 va 36 yoshda 3. 12 va 44 yoshda 4. 8 va 34 yoshda

|11 1 km^2 qaysi qatordagi ifodaga teng?

1. $1\,000\,000 \text{ m}^2$ 2. 100 dm^2 3. $10\,000 \text{ sm}^2$ 4. $100\,000 \text{ m}^2$

|12 Berilgan $750 - x = 19 \cdot 7$ tenglamani javobi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. 133 2. 143 3. 617 4. 671

xtakomillashtirilgan davlat talabi bo'yicha kimning fikrlarini bilish ta'kidlagan?

1. Buyuk allomalarimizning 2. Ota-onalarning
3. Sharq pedagogikasi vakillarining 4. Yurtboshimizning

|14 Boshlang'ich ta'limning yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti (DTS) va modernizatsiya qilingan dasturlari qayerda va qachon chop etilgan?

1. "Ma'rifat" gazetasida, 2004-yil 2. "Boshlang'ich ta'lim" jurnalida, 2005-yil
3. "Xalq ta'limi" jurnalida, 2005-yil 4. "Ta'lim taraqqiyoti" axborotnomasida, 1999-yil

|15 1-sinf "Ona tili" fani yangi dasturining mualliflari to'g'ri keltirilgan qatorni toping. (71-b; 20-b.)

1. Q.Abdullayeva, K.Nazarov, K.Qosimova
2. Q.Abdullayeva, R.Safarova, T. G'afforova
3. Q.Abdullayeva, S.Fuzailov, M.G'ulomov
4. Q.Abdullayeva, K.Nazarov, S.Fuzailov

|16 “O‘qish” darsliklariga qaysi shoir yoki yozuvchining matnlari ko‘p kiritilgan?

1. Quddus Muhammadiyning
2. Po‘lat Mo‘minning
3. Safar Barnoyevning
4. Anvar Obidjonning

|17 Sinf dan tashqari o‘qishning maqsadi nima? O‘quvchilarni ...

1. kitobxon qilib tarbiyalash
2. badiiy matnlar bilan tanishtirish
3. qiziqarli kitoblar o‘qishga undash
4. ularda kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish

|18 Yangi dastur bo‘yicha boshlang‘ich matematika kursining asosini nimalar tashkil etadi? (136-b; 33-b)

1. Jadval hollaridagi hisoblash malakalari
2. To‘rt arifmetik amal
3. Og‘zaki va yozma hisoblash usullari
4. Barcha javob to‘g‘ri

|19 Afsona nima?

1. Afsona g‘ayritabiiy kuchlar ishtirokida yaratilgan xalq ijodi
2. Afsonada yo‘q narsalar ishtirok etadi
3. Afsonani xalq yaratadi
4. Ertaklar asosida

|20 Diametri 8 sm bo‘lgan doiraning radiusi nechaga teng?

1. 2 sm
2. 4 sm
3. 6 sm
4. 10 sm

|21 Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qaysi moddalarida reyting tizimini joriy etish tavsiya etilgan?

1. 42 va 26
2. 22 va 47
3. 22 va 44
4. 46 va 22

|22 2-sinfda nechta so‘zdan lug‘at diktant olinadi?

1. 8 so‘zdan
2. 10 so‘zdan
3. 12 so‘zdan
4. 6 so‘zdan

|23 Vertolyot 2 soatda 430 km masofani bosib o‘tdi. Tezligi undan 3 marta ortiq bo‘lgan samolyot 5 soatda qancha masofaga uchadi?

1. 645 km
2. 430 km
3. 3225 km
4. 2225 km

|24 Mehnat ta‘limining maqsadini aniqlang. O‘quvchilarga ...

1. Kasblar texnologiyasini o‘rgatish
2. Mehnat jarayonlarini o‘rgatish
3. Kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratish
4. Barcha javob to‘g‘ri.

|25 DTS bo‘yicha o‘quvchi ufqning asosiy tomonlarini nima bilan aniqlash malakasiga ega bo‘lishi kerak?

1. Quyoshga, oyga, suvning oqishiga qarab
2. Oyga, kompasga qarab;
3. Quyoshga, shamolga, kompasga karab;
4. Quyoshga, mahalliy belgilarga, kompasga qarab;

|26 O‘zakning ta‘rifi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

1. Bir o‘zakdan hosil bo‘lgan so‘zlar
2. O‘zakka qo‘shilib, yangi ma‘no hosil qiladigan so‘zlar
3. So‘zning tub ma‘nosini bildirib, ma‘noli bo‘laklarga bo‘linmaydigan qism
4. So‘zlarning o‘zagiga yasovchi qo‘shimcha qo‘shish bilan hosil bo‘ladigan qismi

|27 M.Behbudiy 1875 yil tug‘ilgan va 1919 yil vafot etgan. U nechanchi asrda tug‘ilgan va necha yil umr ko‘rgan?

1. XIX asrda tug‘ilgan 51 yil yashagan
2. XVII asrda tug‘ilgan 52 yil yashagan
3. XIX asrda tug‘ilgan 44 yil yashagan
4. XVII asrda tug‘ilgan 52 yil yashagan

|28 «Kitobim-oftobim-1» (Toshkent)ni kimlar tuzishgan?

1. B.Ma‘qulova, S.Matjon
2. B.Ma‘qulova, R.Jo‘raqulov
3. B.Ma‘qulova, T.Adashboyev
4. B.Ma‘qulova, Sh.Hakimova

|29 Bitta sigir bir sutkada 16 l sut beradi. Bir hafta (7 kun) davomida 10 ta shunday sigirdan qancha sut olish mumkin?

1. 1120 l
2. 1000 l
3. 1210 l
4. 1240 l

|30 Bog‘da 24 tub olma, olmadan 2 marta ko‘p nok, nokdan 20 tup kam o‘rik bor. Bog‘da necha tup o‘rik bor?

1. 28 tup
2. 30 tup
3. 26 tup
4. 22 tup

2 variant

|1 Yorug' berar derazam,

Oynalari sinmasin.

Ozoda tutar har dam,

Chang va to'zon inmasin.

Quyidagi she'rda nechta fe'l so'z turkumi bor?

1. 2 ta 2. 4 ta 3. 3 ta 4. 1 ta

|2 Karimning do'sti Toshkent shahrida jurnalist bo'lib ishlaydi.

Qaysi so'z ega vazifasida kelgan?

1. Karimning 2. Do'sti 3. Toshkent 4. Shahrida

|3 Qaysi gapda undalma ishtirok etgan?

1. Bolalarni hayvonot bog'iga olib borishdi 2. Toshkent – ajoyib shahar

3. Yurak, mening sozimsan 4. Eh, kuz qanday ajoyib fasl!

|4 Qaysi qatordagi so'zlarda bo'g'in ko'chirish qoidasi buzilgan?

1. Si-ngil, de-ngiz 2. Daf-tar, aka-si 3. In-gliz, mao-rif 4. Ay-tin-giz, ko'n-gil

|5 Paronim so'zlar qaysi javobda berilgan?

1. Asr – asir, shoh – shox, zirak - ziyrak

2. Uzun, cho'zilgan, cheksiz, olis

3. Baland-past, uzun-qisqa

4. Oldi, yurdi, o'tirdi, yugurdi

|6 "Mustaqillik olloh bergan oliy ne'matdir". Gapning kesimini toping.

1. Mustaqillik 2. Ne'matdir 3. Oliy ne'matdir 4. Olloh bergan

|7 1-sinf savod o'rgatish davrida kuzatish, sayr va sayohatga qancha vaqt ajratilgan?

1. 2 haftada 1 marta; 2. 10 kunda 1 marta; 3. 1 oyda 1 marta; 4. Haftada 1 marta;

|8 Hayot qobig'i qanday nomlanadi?

1. Litosfera 2. Atmosfera 3. Troposfera 4. Biosfera

|9 Parrandachilik fermasida 930 ta parranda bor. Tovuqlar hamma parrandalarning $\frac{2}{3}$ qismini, g'ozlar

$\frac{1}{5}$

qismini, qolganlarini kurkalar tashkil etadi. Parrandachilik fermasida qancha kurka bor?

1. 155 2. 124 3. 310 4. 620

|10 Otasi 45 yoshda, o'g'li otasidan 9 marta kichik. O'g'li otasidan necha yosh kichik?

1. 36 yosh 2. 40 yosh 3. 5 yosh 4. 42 yosh

|11 Dinoraning dala hovlisi bo'yi 25 m 8 dm, eni 30 m 5 dm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklida.

Dala hovli yuzini toping.

1. $786 \text{ m}^2 90 \text{ dm}^2$ 2. 78691 dm^2 3. $78 \text{ m} 90 \text{ dm}$ 4. $786 \text{ m} 9 \text{ dm}^2$

|12 $x - 640 = 180 + 120$ Ushbu tenglamani javobini toping.

1. 300 2. 400 3. 500 4. 940

|13 Boshlang'ich ta'limga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni aniqlang.

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun 2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"

3. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi 4. Barcha javoblar to'g'ri

|14 DTS o'quvchilar bilimining qanday darajasiga qo'yiladi? (6-b)

1. Maksimal, yuqori darajasiga 2. Normal, o'rtacha darajasiga

3. Minimal, eng past darajasiga 4. Eng ilg'or o'quvchi bilimi darajasiga

|15 Boshlang'ich ta'lim "Ona tili" sohasiga qanaqa fanlar kiradi?

(72-b.)

1. Ona tili; O'qish, Imlo 2. Ona tili; Nutq o'stirish, Husnixat

3. Alifbe, Sinf dan tashqari o'qish, Savod o'rgatish. 4. To'g'ri javob yo'q.

|16 3- va 4-sinflar o'qish darslarining necha daqiqasi matnni o'qish va matn ustida ishlashga ajratiladi?

1. 20-25 daqiqasi 2. 25-30 daqiqasi 3. 28-32 daqiqasi 4. 30-35 daqiqasi

|17 Uchinchi sinfda kitoblar ko'rgazmasi qanday tartiblanadi?

1. mavzular asosida 2. janrlar asosida 3. mualliflariga qarab 4. rasmlariga qarab
- |18 Yangi dastur bo'yicha Matematika kursi nimalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi? (136-b; 33-b)
1. Matematik munosabatlar bilan 2. Son bilan
 3. Arefmetik amallar bilan 4. Geometriya elementlari bilan
- |19 «Saloming bo'lmasa ikki yamlab bir yutardim» kimning so'zi?
1. Qaroqchi bezorining 2. Jodugarning 3. Sehgarning 4. Shoirni
- |20 Doiraning radiusi 6 sm ga teng. Shu doiraning diametri nimaga teng?
1. 12 sm 2. 26 sm 3. 3 sm 4. 4 sm
- |21 Reyting to'g'risidagi birinchi Nizom nechanchi yil «Ma'rifat» gazetasida nashr etilgan?
1. 26.08.1998 2. 29.01.1999 3. 29.09.1997 4. 10.01.2000
- |22 3-sinfda nechta so'zdan lug'at diktant olinadi?
1. 10-12 so'zdan 2. 14-16 so'zdan 3. 18-20 so'zdan 4. 22-24 so'zdan
- |23 Tezlik bilan vaqt aniq bo'lsa, masofa qanday aniqlanadi?
1. Tezlikning vaqtga bo'linmasi 2. Tezlikning vaqtga ko'paytmasi
 3. Vaqtning tezlikka bo'linmasi 4. Vaqtdan tezlikning ayirmasi
- |24 Mehnat ta'limi bo'yicha DTS talablari qaysilar?
1. Mehmon kutish qoidalarini bilish 2. Uy-ro'zg'or ishlarini bajara olish
 3. Mehnat asboblari saqlash 4. Jismoniy mehnat qilish
- |25 «Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga xiyolatkorona munosabatda bo'lishga majburlar» degan modda qaysi xujjatda ko'rsatilgan?
1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida
 2. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 29-moddasida
 3. «Tabiatni muhofaza qilish» to'g'risidagi Konunda
 4. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 19-moddasida
- |26 Uyadosh so'zlar qatorini belgilang.
1. Yuz, bet, chehra 2. Bor, yo'q, oz, ko'p 3. Tovuq, o'rdak, xo'roz, g'oz
 4. Asir, asr, bog'lar
- |27 Munis Xorazimiy 1778-yili tavallud topdi va 1829-yili vafot etdi. Xorazmiy nechanchi asrda tug'ilgan va necha yil umr ko'rgan?
1. XVIII asrda tug'ilgan 51 yil yashagan 2. XVIII asrda tug'ilgan 52 yil yashagan
 3. XVII asrda tug'ilgan 51 yil yashagan 4. XVII asrda tug'ilgan 52 yil yashagan
- |28 Alisher Navoiy haqidagi hikoyalar qaysilar?
1. «Gul va Navro'z», «E'tiroz» 2. «Alisher bilan bulbul», «Jazo»
 3. Hikoyat, «Chavgon» 4. «Ziyrak yigit», «Oqilona javob»
- |29 To'pda 80 m beqasam bor. Undan bir xaridorga 26 m sotilgandan keyin to'pda necha metr beqasam qoldi?
1. 54 m 2. 26 m 3. 67 m 4. 34 m
- |30 Shahar bozoriga 3 mashina tarvuz jo'natildi. Bir mashinada 150 ta, ikkinchi mashinada birinchidagidan 50 ta ko'p, uchinchi mashinada esa birinchi va ikkinchi mashinalarda birgalikda qancha bo'lsa, shuncha tarvuz bor. Uchinchi mashinada qancha tarvuz jo'natilgan?
1. 450 ta 2. 350 ta 3. 250 ta 4. 200 ta

3 variant

|1 Qaysi qatordagi soʻzlardan feʼl yasash mumkin?

1. Baxt, ish, tish 2. Quyosh, tosh, bosh 3. Ish, dazmol, qoʻl 4. Ruchka, ish, qoʻl

|2 Maktabimiz jamoa xoʻjaligida katta tokzor bor.

Ega vazifasida kelgan soʻzni toping.

1. Maktabimiz 2. Jamoa 3. Xoʻjalik 4. Tokzor

|3 Buyruq gapni toping.

1. Kitob bilim manbai 2. Kitob baxt keltirar
3. Kitob aql chirogʻi 4. Bugungi ishni ertaga qoldirma

|4 Qaysi qatordagi soʻzlar toʻgʻri yozilgan

1. Muomala, munosabat 2. Tajjub, madat 3. Dard, talluqli 4. Gusht, kitob

|5 Tilning lugʻat boyligini oʻrganuvchi boʻlim

1. Fonetika 2. Grammatika 3. Etimologiya 4. Leksikologiya

|6 Ega qatnashgan gapni aniqlang.

1. Hikoya juda qiziqarli ekan 2. Oʻqituvchi bilan kinoga bordik
3. Bugun Zilolani koʻrdim 4. Ertalab Jamila opani koʻrdim

|7 Xat-savod oʻrgatish ishlari qaysi metod asosida olib boriladi?

1. Suhbat metodi asosida; 2. Boʻgʻin - tovushi metodi asosida;
3. Tarkib metodi asosida; 4. Tahlil va tarkib metodi asosida;

|8 Ovqat hazm qilish organlari qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?

1. Ogʻiz boʻshligʻi, qiziloʻngach, oshqozon, ichaklar, jigar
2. Oshqozon, ichaklar, jigar, buyrak
3. Qiziloʻngach, oshqozon, ichaklar, oʻpka
4. Ogʻiz boʻshligʻi, qiziloʻngach, oshqozon

|9 Sayyohlar 504 km masofani oʻtishdi. Ular yoʻlning $\frac{1}{8}$ qismini piyoda, $\frac{3}{4}$ qismini otida, qolgan

qismini avtobusda oʻtishdi. Sayyohlar avtobusda necha kilometr yurishgan?

1. 63 km 2. 378 km 3. 441 km 4. 126 km

|10 Onasi 48 yoshda, qizi undan 6 marta kichik. Qizi necha yoshda?

1. 8 yoshda 2. 42 yoshda 3. 54 yoshda 4. 10 yoshda

|11 Toʻgʻri toʻrtburchakning boʻyi 45 dm, eni 9 dmga teng. Uning yuzini va perimetrini toping.

1. 405 kv dm, 108 dm 2. 405 dm, 108 mm 3. 405108 dm 4. 400 dm, 108 sm

|12 $x - 34 = 48 : 3$ Ushbu tenglamani javobini toping.

1. 50 2. 16 3. 14 4. 66

|13 “– sodda konstruktorlik ishlarini bajara olish” deb belgilangan talab boshlangʻich sinf oʻquvchilariga qoʻyilgan DTS ning qaysi yoʻnalishida koʻrsatilgan? (DTS kitobining 22-betidan)

1. Tasviriy sanʼatga oid 2. Mehnatga oid
3. Insonning moddiy va maʼnaviy ehtiyojiga oid 4. Tabiyotga oid

|14 DTS qanaqa meʼyoriy hujjatlarni yaratish uchun asos boʻlib xizmat qiladi? (6-b)

1. Oʻquv dasturlari, koʻrgazmali qurollar 2. Darsliklar, qoʻllanmalar
3. Oʻquv dasturlari, uslubiy ishlanmalar 4. Nizomlar, konsepsiyalar

|15 Yangi Ona tili dasturi boʻlimlarini birlashtiruvchi asosiy prinsipni koʻrsating. (72-b; 21-b.)

1. Yozishga oʻrgatish 2. Oʻqishga oʻrgatish 3. Nutq oʻstirish 4. Savod oʻrgatish

|16 Quyidagi matnlardan qaysi biri uch sinf darsligida takrorlanadi?

1. “Non isi” 2. “Hassa” 3. “Alisher bilan bulbul” 4. “Bobur va kabutar”

|17 Sinf kutubxonasi qachon tashkil etiladi?

1. 1-sinfda sentabrning 1-haftasida 2. 1-sinfda sentabrning 3-haftasida
3. 1-sinfning ikkinchi yarimyilligida 4. 2-sinf boshida

|18 1-sinf matematika yangi dasturida eng kam soat qaysi boʻlimga ajratilgan? (34-b)

1. “1 dan 5 gacha boʻlgan sonlar”
2. “6 dan 10 gacha boʻlgan sonlar. 0 soni. Raqamlash”

3. "Narsalarning xossalari. Geometrik shakllar"

4. "11 dan 100 gacha bo'lgan sonlar..."

|19 O'g'ri ololmaydigan boylik nima?

1. Boylik 2. Kiyim-bosh 3. Ilm 4. Tillo

|20 Doiraning radiusi 4 sm ga teng. shu doiraning diametri nimaga teng?

1. 8 sm 2. 6 sm 3. 10 sm 4. 12 sm

|21 Yangi reyting tizimida o'qituvchining vazifalari nechta?

1. 5 2. 7 3. 6 4. 9

|22 4-sinfda nechta so'zdan lug'at diktant olinadi?

1. 12-15 so'zdan 2. 13-14 so'zdan 3. 15-17 so'zdan 4. 20-25 so'zdan

|23 180 km masofani 30 km/soat tezlik bilan harakatlanayotgan traktor necha minutda bosib o'tadi?

1. 306 2. 350 3. 355 4. 360

|24 DTS talablarida nimalar yasash va ularni bezata olish belgilangan?

1. asboblar 2. materiallar 3. buyumlar 4. jihozlar

|25 Odam tanasi nimalardan tarkib topgan?

1. Organlardan 2. Bo'laklardan 3. Qismlardan 4. Yaxlit tanadan

|26 Ko'rsatish olmoshlarini aniqlang.

1. U, bu, shu, o'sha 2. U, kim, nima, qancha

3. O'z, bu, shu, nima 4. Shu, o'sha, nima, o'z

|27 180 soat necha minut bo'ladi?

1. 10800 minut 2. 11800 minut 3. 180 minut 4. 18000 minut

|28 «Kitobim - oftobim»dagi «Zulfizar» hikoyasida qizcha nima bilan do'st bo'ladi?

1. It bilan 2. Mushuk bilan 3. Qo'zi bilan 4. Echki bilan

|29 Xaridor 3 ta rasm daftarini 65 so'mdan oldi va 5 so'm ortib qoldi. Xaridorning necha so'mi bo'lgan?

1. 200 2. 300 3. 400 4. 500

|30 Do'konga 100 ta kitob keltirdi. Kun bo'yi ularning beshdan bir qismi sotildi. Shu kuni qancha kitob sotilgan?

1. 10 ta 2. 20 ta 3. 30 ta 4. 40 ta

4 variant

|1 Harakatni bajarilganligini bildirgan soʻzni toping.

1. Kelyapti 2. Keldi 3. Kelmoqchi 4. Ketyapti

|2 Karimning daftari menda saqlanayapti.

Gapdagi qaysi soʻz ega vazifasida kelgan?

1. Karimning 2. Daftari 3. Menda 4. Ega yoʻq

|3 Sizga sovgʻa qilishdi.

Gapdagi sizga soʻzi qaysi soʻz turkumi?

1. Ot 2. Sifat 3. Olmosh 4. Ravish

|4 Tutuq belgisi toʻgʻri qoʻyilgan soʻzlar qatorini toping.

1. Sanʼat, surʼat, mashʼal 2. Saʼnat, maʼshal, maʼsul

3. Maʼqul, maʼshal, maʼno 4. Taʼna, maʼsul, saʼva

|5 Qaysi qatorda uyadosh soʻzlar bor?

1. Ot, olma, olcha 2. Maktab, sinf, stol

3. Qoʻy, qoʻzichoq, qoʻchqor 4. Chiroyli, goʻzal, nafis

|6 Konstitutsiyamizda davlatimizning buguni, ertasi bayon etilgan.

Gapdagi egani aniqlang.

1. Buguni, ertasi 2. Konstitutsiyamizda 3. Davlatimizning 4. Ega ishtirok etmagan

|7 Savod oʻrgatish davri davom etadigan muddatni aniqlang. (R.Safarova... darsligi bilan ishlash)

1. Oddiy sinflarda 21 martgacha, iqtidorli sinflarda yanvargacha davom etadi;

2. Oddiy va iqtidorli sinflarda oʻquvchilarga beriladigan taʼlim-tarbiya, talab bir xil boʻlib, ular muddat jihatidan farq qilmaydi;

3. Alohida oʻqish rejasi tuzilib, oddiy sinflarda aprelgacha, iqtidorli sinflarda dekabr oyining oxirigacha davom etadi;

4. Barcha sinflarda dekabrning oxirigacha;

|8 Osmon deb nimaga aytiladi?

1. Juda yuqoridagi qalin havo qatlami 2. Qattiq, suyuq, gazsimon jismlar toʻplami

3. Yerning baland choʻqqisi osmon deyiladi 4. Issiq va sovuq havo harakati

|9 Yogʻ zavodi 3 ta doʻkonda 1400 kg yogʻ joʻnatdi. Zavod birinchi doʻkonga hamma yogʻning $\frac{1}{7}$

qismini, ikkinchi doʻkonga $\frac{3}{14}$ qismini, uchinchi doʻkonga esa qolgan yogʻni joʻnatdi. Har qaysi

doʻkon qanchadan yogʻ olgan?

1. 800 2. 700 3. 600 4. 900

|10 Dehqon 1 kuni 2 t 4 sr, 2 kuni 3 t 6 sr, 3 kuni esa 2 t 7 sr piyoz sotdi. 4 kunda oʻrtacha qancha piyoz topgan.

1. 2 t 9 sr 2. 8 t 7 sr 3. 10 t 6 sr 4. 1 t 4 sr

|11 Boʻyi 80 m va eni 20 m boʻlgan toʻgʻri toʻrtburchak shaklidagi maydonning yuzini toping.

1. 160 kv m 2. 1600 kv m 3. 16 000 kv m 4. 160 000 kv m

|12 $640 - x = 180 + 120$ Ushbu tenglamani javobini toping.

1. 300 2. 340 3. 640 4. 980

|13 Boshlangʻich sinf oʻqituvchisini qaysi oʻquv yurti tayyorlashi zarur? (Davlat talablari boʻyicha)

1. Oliy taʼlim 2. Oʻrta-maxsus taʼlim 3. Kasb-hunar kolleji 4. Litsey

|14 DTS ni ishlab chiqishda qaysi meʼyoriy hujjatlar asos qilib olingan? (7-b)

1. konsepsiyalar, nizomlar 2. dasturlar, farmonlar

3. qonunlar, qarorlar 4. qarorlar, ustavlar

|15 Boshlangʻich oʻqishda oʻquvchilar qanday oʻqish malakasini egallaydilar? (73-b.)

1. ifodali oʻqish 2. boʻgʻinlab oʻqish 3. ongli oʻqish 4. harflab oʻqish

|16 Matn ustida ishlashda tubandagi koʻrsatkichlardan qaysi biri muhimroq?

1. 1 daqiqada 80-90 soʻz oʻqiy olish

2. 10 daqiqada 4-5 sahifali matnni oʻqib, hikoya qilib bera olish

3. matn yuzasidan 5-6 gapli bayon yoza olish
4. notanish soʻzlar bilan ishlay olish
- |17 1-sinfda STOʻ mashgʻulotlari jami necha soatni tashkil etadi?
1. 33 soatni 2. 17 soatni 3. 34 soatni 4. 15 soatni
- |18 Yangi dastur boʻyicha 1-sinf oxirida oʻquvchilar nimalarni uddalay olishlari kerak? (159-b; 35-b)
1. - kesma uzunligini detsimetrda yozishni
2. - 0 dan 100 gacha boʻlgan sonlarni oʻqish va yozishni
3. - qoʻshish va ayirishga doir sodda arifmetik masalalarni yechishni
4. barcha javoblar toʻgʻri
- |19 Yetti xazinaning biri
1. Pul 2. Hunar 3. Zar 4. Parranda
- |20 Aylana va doiraning radiusi deb ...
1. Markazni aylanadigan nuqta bilan tutashtiruvchi kesmalar
2. Bir chiziqli yotgan kesmalar
3. Bir-birini davom ettiradigan kesmalar
4. Aylana va doiraning markazi
- |21 Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oʻzbekiston Respublikasida umumiy oʻrta taʼlimni tashkil etish toʻgʻrisida»gi qaysi qarori qachon chiqarilgan?
1. 390, 10.05.1995 2. 303, 508.2000 3. 203, 13.05.1998 4. 86, 10.09.1999
- |22 Saylanma diktant maqsadi toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni toping.
1. Imlo qoidalarini mustahkamlash
2. Oʻquvchilarning mavzuni qay darajada oʻzlashtirganligini tekshirish
3. Imlo qoidalarini amalda qoʻllash
4. Barcha javoblar toʻgʻri
- |23 Soy boʻyida oʻsgan olma daraxtidan bitta olma uzilib suvga tushdi va 2 soatda 4 km ga oqib bordi. Soy oqimining tezligini toping.
1. 2 km/soat 2. 3 km/soat 3. 4 km/soat 4. 6 km/soat
- |24 1-sinf oʻquvchilari oʻquv yili oxirida nimalarni bilishlari kerak?
1. asboblarni 2. yogʻoch materiallarni 3. gazlama turlarini 4. barcha javoblar toʻgʻri
- |25 Oʻzbekistondagi avtonom respublika va viloyatlar soni qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?
1. 10 ta viloyat, 1 ta avtonom respublika; 2. 12 ta viloyat, 1 ta avtonom respublika;
3. 13 ta viloyat, 2 ta avtonom respublika; 4. 13 ta viloyat, 1 ta avtonom respublika;
- |26 Oʻtgan zamon feʼlini hosil qiluvchi qoʻshimchalar qaysilar?
1. -yap, -gan 2. -di, -gan 3. -yap, -moqda 4. -moqchi, -yotir
- |27 7 sutka necha soat boʻladi?
1. 168 soat 2. 68 soat 3. 158 soat 4. 148 soat
- |28 «Kitobim-oftobim»dagi «Tabiat haqida sheʼrlar» boʻlimida qaysi faslga bagʻishlangan sheʼr mavjud emas?
1. bahor 2. yoz 3. kuz 4. qish
- |29 Xaridor 40 soʻmdan 12 ta daftar oldi va uning 20 soʻm puli ortib qoldi. Xaridorning necha soʻm puli boʻlgan?
1. 500 2. 400 3. 300 4. 600
- |30 5 ta sigirdan kuniga barabardan hammasi boʻlib 50 l sut sogʻib olindi. Xuddi shunchadan sut beradigan nechta sigirdan 90 l sut sogʻib olish mumkin?
1. 7 sigir 2. 8 sigir 3. 9 sigir 4. 10 sigir

|1 Salomlashib sizlashamiz,

Bir-birimiz izlashamiz.

Ushbu misrada nechta fe'l so'z turkumi bor?

1. 2 ta 2. 3 ta 3. 4 ta 4. 1 ta

|2 Akam – agronom.

Gapdagi agronom so'zi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

1. Ega 2. Kesim 3. To'ldiruvchi 4. Hol

|3 Qaysi qatorda ot so'z turkumi to'g'ri berilgan?

1. Gulzor, guldor, guldon 2. Iz, gul, guldor
3. Gulla, gulchi, guldon 4. Ot, olma, bog', olcha

|4 Qaysi qatordagi so'zlarda tutuq belgisi tushirib qoldirilsa ma'no o'zgaradi?

1. Ma'qul, ta'na, she'r 2. Ta'na, sa'va, a'lo
3. Mash'al, she'r, a'zo 4. Ta'na, sa'va, sur'at

|5 Sinonim so'zlar bor qatorni aniqlang.

1. Ishchan, harakatchan, tirishqoq 2. Osmon, samo, quyosh, oftob
3. Ziyrak, zirak, zaynab, ziyo 4. Olma, o't, yuz, bet, aft

|6 Ega qatnashgan gapni toping.

1. Bugungi ishni ertaga qo'yma 2. O'qituvchi bilan kinoga bordik
3. Daraxtda qushlarning donxo'ragi osilgan 4. O'qituvchi haqida maqola yozdim

|7 O'zbek tiliga Davlat tili maqomi qachon berildi?

1. 1992 yil 31 avgustda; 2. 1993 yil 1 sentyabrda;
3. 1989 yil 21 oktyabrda; 4. 1991 yil 20 dekabrda;

|8 Tirik organizmlar tarqalgan asosiy hayot muhitlari?

1. Yer bazasi, quyosh sistemasi 2. Tirik organizmlar, suv
3. Havo, tuproq, koinot 4. Suv, tuproq, havo, tirik organizm

|9 Kitob 100 betli. Qizcha birinchi kun uning $\frac{3}{4}$ qismini, ikkinchi kun esa birinchi kuni o'qiganining

$\frac{1}{5}$ qismini o'qidi. Qizcha ikkinchi kun kitobning necha betini o'qidi?

1. 15 bet 2. 16 bet 3. 24 bet 4. 48 bet

|10 O'ylagan songa 118 ni qo'shib, yig'indidan 84 ni ayirsak, 84 hosil bo'ladi. Qanday son o'ylangan?

1. 40 2. 45 3. 30 4. 50

|11 Bir guruhda 42 nafar o'quvchi, ikkinchisida birinchisidagiga qaraganda 8 nafar kam, uchinchisida esa ikkinchisidagiga qaraganda 4 nafar ko'p o'quvchi bor. Uchinchi guruhda nechta o'quvchi bor?

1. 34 o'quvchi 2. 38 o'quvchi 3. 42 o'quvchi 4. 35 o'quvchi

|12 $7 * x + 854 = 910$ Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 8 2. 9 3. 6 4. 10

|13 Boshlang'ich sinf o'qituvchisi qaysi ta'lim turlarining DTSlarini bilishi kerak?

(Davlat talablari bo'yicha)

1. Maktabgacha ta'limning 2. Umumiy o'rta ta'limning
3. Oliy ta'limning 4. Barcha javoblar to'g'ri

|14 Tayanch reja (o'quv soatlar setkasi) ning DTS ga aloqadorligini belgilang. (8-b)

1. DTS ning ilovasi 2. Alohida hujjat 3. DTS ning 3-bo'limi 4. DTSning tarkibiy qismi

|15 Yangi dastur bo'yicha savod o'rgatish davri qachongacha davom etadi? (72, 89-b.)

1. 21- martgacha 2. yanvargacha 3. 30- dekabrgacha 4. 30- yanvargacha

|16 Matnni o'qitishdagi yangi usulni belgilang.

1. "Kim 1 daqiqada necha so'z o'qiydi?"
2. "Nuqtadan nuqtagacha o'qish"
3. "Kim 2 daqiqada nechta gap o'qiydi?"
4. "Kim 10 daqiqada necha sahifa o'qib, hikoya qilib beradi?"

|17 STO' mashg'ulotlarida qanday ishlar amalga oshiriladi?

1. "Kitobim-oftobim"dan o'qib kelingan matnlar so'raladi
 2. "Sinf, maktab va oila kutubxonalaridan o'qilganlar tahlil qilinadi
 3. Yangi badiiy kitob bilan tanishtiriladi
 4. Barcha javoblar to'g'ri
- |18 Yangi dastur bo'yicha 2-sinf matematika dasturi bo'limlari qanday qismlarga bo'lib berilgan? (154-159-b.b; 36-b.)
1. Asosiy qism, raqamlash, xulosa
 2. Asosiy qism, amaliy ishlar, rivojlantiruvchi mashqlar
 3. Matematik tushunchalar, geometrik shakllar
 4. Tushuntirish xati, bo'limlar, talablar
- |19 Jasorat nima?
1. Samimiy mehribon bo'lish
 2. Mardlik, botirlik, sheryuraklik
 3. Qo'rqmas, botirlik
 4. Dangasalik
- |20 Doira deb ...
1. Doiraning chegarasi bo'lmagan chiziq
 2. Tekislikning aylana bilan chegaralangan qismi
 3. Aylananing markazidan o'tuvchi chiziq
 4. Aylananing ixtiyoriy ikki nuqtasini tutashtiruvchi kesma
- |21 Yangi reyting tizimining nazorat turi nechta?
1. 3
 2. 4
 3. 5
 4. 6
- |22 Ko'rsatish diktantining maqsadi nima?
1. Gapni bosh harf bilan yozish
 2. Yo'l qo'ygan xatolarni to'g'rilash
 3. O'quvchilarning ko'rish, idrok etish sezgilarining taraqqiy etishi
 4. Barcha javoblar to'g'ri
- |23 Ikki shahar orasidagi masofa 300 km. Poyezd bu masofani 5 soatda bosib o'tdi. Poyezdning tezligini toping.
1. 90 km/s
 2. 60 km/s
 3. 300 km/s
 4. 75 km/s
- |24 2-sinf o'quvchilariga qo'yilgan dastur talablarini toping. ... to'g'ri foydalanish.
1. boltadan
 2. qaychidan
 3. o'roqdan
 4. teshadan
- |25 O'zbekistonning eng yirik daryolari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1. Sirdaryo, Zarafshon, Chorvoq;
 2. Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon;
 3. Sirdaryo, Amudaryo, Qayroqqum;
 4. Sirdaryo, Nurek, Zarafshon;
- |26 Sifat yasovchi qo'shimchalar ishtirok etgan so'zlar qatorini toping.
1. Beshavqat, ishtirok, suvdon
 2. Harakatchan, bebaho, hosildor
 3. Aqlli, tuzsiz, gulchi
 4. Aqlsiz, suvchi, guldor
- |27 16 yoshga kirgan bola necha soat yashagan?
1. 140160 soat
 2. 148150 soat
 3. 130160 soat
 4. 145161 soat
- |28 "Hadis" so'zining ma'nosi keltirilgan qatorni toping.
1. "jumla"
 2. "rivoyat"
 3. "naql"
 4. "so'z"
- |29 Xaridor 60 so'mdan 16 ta bloknot oldi va 40 so'm puli ortib qoldi. Xaridorni necha so'm puli bo'lgan
1. 1000
 2. 1100
 3. 2000
 4. 1500
- |30 Kutubxonada 95 ta kitob bor edi. 9 o'quvchi 4 tadan kitob oldi. Kutubxonada nechta kitob qoldi?
1. 59 ta
 2. 69 ta
 3. 49 ta
 4. 50 ta

6 variant

|1 Gullarga suv tashiyman,
Qo'lda jajji chelagim.
Charchamayman sira ham,
Juda kuchli bilagim.

She'rdan nechta fe'l so'z turkumi bor?

1. 2 ta 2. 3 ta 3. 5 ta 4. 1 ta

|2 Mening do'stim Toshkent shahrida yashaydi.

Gapda qaysi so'z ega vazifasida kelgan.

1. Mening 2. Do'stim 3. Toshkent 4. Shahrida

|3 Qaysi qatordagi ot o'rin-payt kelishik qo'shimchasini olgan.

1. Mehnat insonni ulug'laydi 2. Mehnatning tagi rohat
3. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik 4. Odam mehnatda sinaladi

|4 Qaysi qatordagi so'zlar to'g'ri yozilgan

1. Gusht, dart, kitob 2. Ta'surot, ta'jub, raost
3. Ta'na, stol, loqayt 4. Taassurot, karam, go'sht

|5 Sinonim so'zlar ishtirok etgan qatorni toping.

1. Oq, qora, qizil 2. Go'zal, xunuk 3. Ot, olma, o't 4. Go'zal, chiroyli

|6 Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas,

Ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas.

Mazkur gapdagi egani toping.

1. Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas 2. Ko'zimni 3. Atlas 4. Ega ifodalanmagan

|7 Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?

1. 1991 yil 1 sentyabrda; 2. 1993 yil 2 sentyabrda;
3. 1995 yil 24 avgustda; 4. 1995 yil 6 mayda;

|8 Odam tanasi nimadan tarkib topgan?

1. Organlardan 2. Bo'laklardan 3. Qismlardan 4. Yaxlit tanadan

|9 Qurilish uchun 166 ta taxta olindi. Bu omborxonadagi taxtalarning $\frac{1}{8}$ qismiga teng. Omborxonada

hammasi bo'lib nechta taxta bo'lgan?

1. 1340 taxta 2. 1400 taxta 3. 1328 taxta 4. 1238 taxta

|10 Futbol guruhidagi 11 nafar bolaning o'rtacha yoshi 12ga teng. Murabbiyning ham yoshini qo'shib hisoblaganda 13 chiqdi. Murabbiy necha yoshda?

1. 25 yoshda 2. 24 yoshda 3. 21 yoshda 4. 27 yoshda

|11 Qaysi qatordagi o'lchov birliklari to'g'ri berilgan?

1. 1 kub m = 1 000 kub dm 2. 1 kub m = 100 kub sm
3. 1 kub m = 100 kub sm 4. 1 kub sm = 10 000 kub sm

|12 $9 * (7512 - x) = 342$ Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 7474 2. 7476 3. 7674 4. 7676

|13 Davlat talablarida sinf o'quvxonalarini bo'yicha nimalar deyilgan?

1. Barcha javob to'g'ri 2. o'quv jihozlari bilan jihozlash
3. ko'rgazmali qurollar bilan jihozlash
4. didaktik materiallar, ko'rgazmali qurollar bilan jihozlash

|14 Boshlang'ich ta'limda davlat ixtiyoridagi soatlar bo'yicha nechta fan bor? (10-b)

1. 9 ta 2. 10 ta 3. 11 ta 4. 12 ta

|15 O'qishga o'rgatishning muhim vazifalarini aniqlang. (75-b.)

1. - matn ustida ishlashga o'rgatish 2. - muayyan xulosalar chiqarishga o'rgatish
3. - atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish 4. barcha javoblar to'g'ri

|16 Matn bu – mazmun jihatdan birikkan...

1. so'zlar 2. so'z birikmalari 3. gaplar 4. iboralar

|17 2-, 3-, 4-sinflarda STO' mashg'ulotlari qanday tartibda o'tkaziladi?

1. haftada bir marta 2. "Oqish" darsligining har bir bo'limidan so'ng
 3. har bir MSNI dan so'ng 4. ikki haftada bir marta
- |18 Yangi dasturda berilgan "Tangram o'yini" nima? (158-b; 35-b)
1. Topqirlikka doir masalalar 2. Shakllar va belgilarni topish
 3. Shakllar yordamida yangi shakllar hosil qilish 4. Shakllar qatorini davom ettirish
- |19 Eng kuchli odam?
1. Sog'lom 2. Bilimli 3. Bilagi kuchli 4. Jasur
- |20 Radiusi 40 sm ga teng bo'lgan aylananing diametri necha dm bo'ladi?
1. 8 dm 2. 10 dm 3. 4 dm 4. 80 sm
- |21 Reyting tizimida tashqi nazoratni kim tashkil etadi?
1. Uslubiy birlashmalar 2. Xalq ta'limi boshqaruv organlari
 3. Maktab direktorlari 4. Direktor o'rinbosari
- |22 Yoddan yozuv diktantning maqsadi nima?
1. Imlodan berilgan ma'lumotlarni singdirish 2. Og'zaki va yozma nutqini o'stirish
 3. Xotiralarini mustahkamlash 4. Yuqoridagi javoblarning barchasi to'g'ri
- |23 «Neksiya» yengil mashinasida 2 soatda 16 litr benzin sarflandi. 80 litr benzin necha soat yurishga yetadi?
1. 15 soat 2. 25 soat 3. 10 soat 4. 20 soat
- |24 Qizil bayroqchalar qayerda va nima uchun ishlatiladi?
1. Yuqori sinf o'quvchilarini yo'ldan o'tkazishda transport vositalarini to'xtatish uchun
 2. DAN xodimlarini ogohlantirish uchun
 3. Maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilarini yo'ldan o'tkazayotganda transport vositalarini to'xtatish uchun
 4. Svetoforni vaqtincha o'chirib piyodalarni yo'ldan o'tkazish uchun
- |25 1-sinfda «Atrofimizdagi olam» kursi nechta yo'nalishda olib boriladi?
1. Bir yo'nalishda; 2. Ikki yo'nalishda; 3. Uch yo'nalishda; 4. Ko'p yo'nalishda;
- |26 Qo'shma sifatlarni toping.
1. Nimjon, tuzsiz, kuzgi, ilmiy 2. Sergap, baquvvat, beodob, betamiz
 3. Mag'rur, molparast, qorindor 4. Xalqaro, tezyurar, qimmatbaho, kulrang
- |27 Ozodbek hozir 12 yoshda, uning akasi esa 23 yoshda. Necha yildan so'ng Ozodbek akasi bilan teng yoshda bo'ladi?
1. 11 yil 2. 10 yil 3. 14 yil 4. 15 yil
- |28 "Sirli xazina" ertagida qanday xazina haqida hikoya qilinadi?
1. Ilm 2. Oltin 3. Kitob 4. Pul
- |29 Do'konda 5 tonna olma bor edi. Yana 3000 kg olib keltirishdi. 2000 kg olma sotilgan bo'lsa, do'konda necha tonna olma qolgan?
1. 6 tonna 2. 4 tonna 3. 8 tonna 4. 10 tonna
- |30 Bosmaxonada 318 nafar erkak va ulardan 42 nafar kam ayol ishlaydi. Bosmaxonada hammasi bo'lib necha kishi ishlaydi?
1. 594 kishi 2. 694 kishi 3. 500 kishi 4. 550 kishi

|1 O'z partangda o'tir jim,
Pichoq bilan o'ymagin.
Menda olasan bilim,
Buni yaxshi o'ylagin.

She'rda nechta fe'l so'z turkumi bor?

1. 2 ta 2. 3 ta 3. 4 ta 4. 5 ta

|2 Bir o'rdakcha, mitti jo'ja,
Do'st bo'lishdi kuni kecha.

Keng dalada o'ynar ikkov,
Mushuk esa poylardi ov.

Berilgan she'rda nechta ega bor?

1. 3 ta 2. 2 ta 3. 1 ta 4. 4 ta

|3 Gapda otlar boshqa so'zlarga qaysi qo'shimchalar yordamida bog'lanadi?

1. Kelishik qo'shimchalari 2. Ot yasovchi qo'shimchalar
3. Sifat yasovchi qo'shimchalar 4. Fe'l yasovchi qo'shimchalar

|4 Jarangli undosh tovushlar berilgan qatorni toping.

1. B, d, z, l 2. P, t, k, ch 3. B, d, s, x, n 4. D, g, j, v, y

|5 Omonim so'zlar qatorini toping

1. Ot, olma, o't 2. Yaxshi, yomon 3. Qizil, oq, qora 4. Mard, jasur

|6 Quyidagi maqollarning qaysisida ega sifat vazifasida kelgan?

1. Bugungi ishni ertaga qo'yma 2. Yaxshi osh yedirar, yomon pand
3. Odob bozorda sotilmaydi 4. Oz so'zla, ko'p tingla

|7 Amaldagi imlo qoidalari qachon tasdiqlangan?

1. 1994 yil 1 aprelda; 2. 1993 yil 2 seshyabrda;
3. 1995 yil 24 avgustda; 4. 1995 yil 6 mayda;

|8 O'zbekistondagi avtonom respublika va viloyatlar soni qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. 10 ta viloyat, 1 ta avtonom respublika 2. 12 ta viloyat, 1 ta avtonom respublika
3. 13 ta viloyat, 2 ta avtonom respublika 4. 13 ta viloyat, 1 ta avtonom respublika

|9 67 809 sonining $\frac{3}{7}$ qismini toping.

1. 29061 2. 9687 3. 29016 4. 29071

|10 Otasi 32 yoshda, o'g'illaridan biri 8 yoshda va ikkinchisi esa 6 yoshda. Necha yildan keyin o'g'illarining yoshi otasining yoshiga teng bo'ladi?

1. 1764 2. 1664 3. 1564 4. 441

|11 Yuzi tomonlari 63 sm va 28 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning yuziga teng kvadratning perimetrini toping.

1. 168 sm 2. 167 sm 3. 160 sm 4. 164 sm

|12 $(2878 - 2140) / x = 9$ Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 84 2. 886 3. 82 4. 72

|13 Davlat talabida nimalarni tahlil qila bilish ko'rsatilgan?

1. texnik-didaktik vositalarni 2. kompyuter dasturlarini
3. chet el adabiyotlarini 4. badiiy adabiyotlarni

|14 3-sinfni bitirgan o'quvchi DTS bo'yicha 1 daqiqada necha so'z o'qiy olishi kerak? (14-b; 9-b)

1. 65-75 2. 60-70 3. 80-90 4. 70-80

|15 Yangi dastur bo'yicha 1-sinfda Sinf dan tashqari o'qish (STO) mashg'ulotlariga necha daqiqa ajratiladi? (74-, 93-, 99-b; 23-b)

1. 15 daqiqa 2. 15-18 daqiqa 3. 15-20 daqiqa 4. 20 daqiqa

|16 Quyidagi ertaklardan qaysi biri o'zbek xalq ertagi?

1. "Bo'g'irsoq" 2. "Bo'ri va echki bolalari" 3. "Sholg'om" 4. to'g'ri javob yo'q

|17 "Kitobim-oftobim" (Toshkent, 1999) va "Kitobim-oftobim (Xazina)" (Samarqand, 2006) qo'llanmalarining farqini aniqlang.

1. matnlar mazmunida 2. matnlar hajmida
 3. mashg'ulotlar sonida 4. mashg'ulotlar mazmunida
- |18 2-sinf matematika yangi dasturining rivojlantiruvchi mashqlar bo'limida qanaqa chiziqlar asosida shaklni qayta tiklash belgilangan? (161-b; 36-b)
1. to'g'ri 2. egri 3. sinig 4. zirh
- |19 «Bir-biringizga tuhmat va bo'hton qilmanglar». Bu nima?
1. Maqol 2. Hadis 3. Rivoyat 4. Ertak
- |20 Vobkent minorasi pastki asosining diametri 6 m 20 sm, yuqori qismining diametri 2 m 80 sm. Pastki diametri minoraning yuqori qismi diametridan qancha uzun?
1. 3 m 40 sm 2. 4 m 50 sm 3. 5 m 60 sm 4. 6 m 30 sm
- |21 O'quvchining «ijodiy ishi» necha ball bilan baholanadi?
1. 5,6 b 2. 4,5 b 3. 3,4 b 4. 2,3 b
- |22 Ta'kidiy diktantning maqsadi nima?
1. O'quvchilarning o'rgangan imlo qoidalarini mustahkamlash
 2. Imlo qoidalaridan amalda foydalanish 3. Matnni yoddan bilish
 4. O'quvchilarning o'rgangan imlo qoidalarini mustahkamlash, imlo qoidalaridan amalda foydalanish
- |23 Chang'ichi bir xil tezlik bilan yurib, 63 km yo'l bosdi. U dam olguncha 5 soat, dam olgandan so'ng 2 soat yurdi. Chang'ichi qanday tezlik bilan yurgan?
1. 9 km / soat 2. 10 km / soat 3. 11 km / soat 4. 12 km / soat
- |24 Yo'l harakati yosh nazoratchilari guruhlarini a'zolarining asosiy vazifalari...
1. Yo'llarda xavfsiz yurish qoidalarini o'rganish va bolalar o'rtasida targ'ibot qilish
 2. Yo'llarda yuz bergan baxtsiz hodisalarda tibbiy yordam ko'rsatish
 3. Yo'l harakati qoidalarini o'rgatish bo'yicha malakaga ega bo'lish
 4. Yo'llarda harakatlanish qoidalarini bolalar o'rtasida tashkil qilish
- |25 Ekskursiya tashkil etish necha bosqichdan iborat bo'ladi?
1. 5 bosqichdan; 2. 6 bosqichdan; 3. 8 bosqichdan; 4. 2 bosqichdan;
- |26 Ravish so'z turkumiga oid so'zlar nimani ifodalaydi?
1. Predmetning belgisini 2. harakatni 3. Harakatning belgisini 4. Predmetning nomini
- |27 Qo'ng'iz 50 metrli ustunga chiqish uchun kunduzi 4,5 metr ko'tarilib, kechqurun 3 metr pastga tushadi. Qo'ng'iz necha kunda ustunga chiqadi?
1. 33 kun 8 soat 2. 32 kun 7 soat 3. 33 kun 6 soat 4. 34 kun 5 soat
- |28 STO' mashg'ulotida sinfda o'qiladimi?
1. «Kitobim - oftobim» o'qiladi 2. Jurnal o'qiladi
 3. Badiiy adabiyotdan bir lavha o'qiladi 4. Barcha javob to'g'ri
- |29 Qurilishda 150 tonna sement bor edi. Yana 90 tonna sement keltirishdi. 110 tonna sement ishlatildi. Necha tonna sement qoldi?
1. 120 2. 110 3. 130 4. 140
- |30 Do'konda 200 ta katakli va ulardan 3 marta ko'p 1 chiziqli daftar bor. Do'konda hammasi bo'lib nechta daftar bor?
1. 200 ta 2. 400 ta 3. 600 ta 4. 800 ta

8 variant

|1 O‘yin bo‘lsa, o‘ynaymiz,
Bo‘lmasa-chi, topamiz.
Topolmasak zir yelib,
To‘rt tomonga chopamiz.

She‘rda nechta fe‘l so‘z turkumi bor?

1. 4 ta 2. 5 ta 3. 6 ta 4. 7 ta

|2 Samarqand shahrida qadimiy obidalar juda ko‘p.

Gapdagi qaysi so‘z ega vazifasida kelgan.

1. Samarqand 2. Shahrida 3. Qadimiy 4. Obidalar

|3 Qaysi qatorda kitob so‘zi tushum kelishigini olgan?

1. Kitobni o‘qigan inson ko‘p biladi 2. Kitob o‘z do‘stining dilini og‘ritmaydi
3. Kitobning suhbatidan inson foyda oladi 4. Inson uchun kitobdan afzal narsa yo‘q

|4 Qaysi qatordagi so‘zlar imlo jihatdan to‘g‘ri yozilgan?

1. Xabar, hokim, xotira 2. Xalfa, xotin, xisob
3. Hisob, xola, xarf 4. Xo‘roz, xajm, handalak

|5 Qaysi qatordagi so‘zlar o‘z ma‘nosida ishlatilgan?

1. Po‘lat iroda 2. Kumush qoshiq 3. Oltin qo‘l 4. Toshbag‘ir

|6 Konstitusiyamiz necha bobdan iborat?

Gapdan egani aniqlang.

1. Konstitusiyamiz 2. Bob 3. iborat 4. Ega berilmagan

|7 Unli harflar bilan tugagan ismlardan familiyalar hosil qilish uchun qanday qo‘shimcha qo‘shiladi?

1. - yeva, - yev 2. - ev, - eva 3. - ov, - ova 4. - ov, - ev

|8 O‘zbekistonning rangli metallarga eng boy joyini ayting.

1. Qurama tizmasi 2. Chatloq tizmasi 3. Nurota tizmasi 4. Hisor tizmasi

|9 Daftar 12 betli. Bir qiz shu daftar betlarining $\frac{5}{6}$ qismini yozib to‘ldirildi. Yozilmagan necha bet qoldi?

1. 10 bet 2. 11 bet 3. 2 bet 4. 13 bet

|10 Avtobusda bir necha yo‘lovchi bor edi. Birinch bekatda 14 yo‘lovchi tushib, 9 kishi chiqqandan so‘ng avtobusda 27 ta yo‘lovchi bo‘ldi. Dastlab avtobusda nechta yo‘lovchi bo‘lgan?

1. 32 ta 2. 42 ta 3. 52 ta 4. 62 ta

|11 To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi gulzorning bo‘yi 16 m, eni esa 10 m. Uning yuzi poliz yuzining beshdan bir qismiga teng. Polizning yuzini toping.

1. 600 m² 2. 700 m² 3. 800 m² 4. 900 m²

|12 $3 * x - 198 = 333$ Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 174 2. 175 3. 178 4. 177

|13 Davlat talabida reyting tizimi bo‘yicha qanday fikr aytilgan?

1. tahlil qila bilish 2. chuqur o‘rganish 3. mukammal bilish 4. to‘g‘ri qo‘llash

|14 DTS da o‘qish texnikasi bo‘yicha talablar qaysi jumla bilan tugaydi? (14-b; 9-b;) 4-sinf

1. – so‘z urg‘ulariga rioya qilish 2. – gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish
3. – ilmiy atamalarni to‘g‘ri talaffuz etish 4. to‘g‘ri javob yo‘q

|15 2- sinf O‘qish fani yangi dasturi o‘z ichiga oladigan bo‘limlarni toping. (75-76-b; 25-26-b)

1. O‘qish mavzulari 2. O‘qish ko‘nikmalari
3. Matn ustida ishlash 4. Barcha javoblar to‘g‘ri

|16 Po‘lat Mo‘min nechanchi yil qayerda tug‘ilgan?

1. 1923-yil Toshkent shahrida 2. 1922-yil Toshkent shahrida
3. 1921-yil Jizzax shahrida 4. 1924-yil Jizzax shahrida

|17 Sinf rahbari sinf kutubxonasining tashkil etilishida qanday hissa qo‘shadi?

1. o‘quvchilardan foydalanadi 2. homiylardan foydalanadi
3. o‘z kitoblaridan bir nechasini olib keladi 4. maktab kutubxonasidan foydalanadi

|18 2-sinf Matematika yangi dasturida 18 ichida bir xonali sonlarni qanday qo'shish va ayirish ko'rsatilgan? (160 –163-b.b; 36-b)

1. xona orqali o'tib 2. o'nlik orqali o'tib 3. birlik orqali o'tib 4. yuzlik orqali o'tib

|19 «Kasb hunarning eng yaxshisi kishining o'z qo'li bilan bajaradigan halol ishi», - deb kim aytgan?

1. Imom al-Buxoriy 2. Muhammad payg'ambar 3. Amir Temur 4. Xorazmiy

|20 Minorai Kalon pastki asosining diametri 9 m, Kaltaminor pastki asosining diametri 14 m 20 sm. Kaltaminor asosi radiusi Minorai Kalon asosi radiusidan qancha ortiq?

1. 2 m 60 sm 2. 3 m 60 sm 3. 4 m 40 sm 4. 5 m 45 sm

|21 MSNIning BKM elementlari to'g'ri aniqlangan bo'lsa, u qanday belgilanadi?

1. Bajarilmadi 2. To'la bajarilmadi 3. Bajarildi 4. Bajarilmoqda

|22 Izohli diktantning yozuvdagi xatolari qanday tartibda tuzatilib izohlanadi?

1. O'quvchilarning biri aytgan so'zdagi xatoni boshqa bir o'quvchi og'zaki izohlaydi

2. O'quvchi xatosini o'qituvchi og'zaki izohlaydi

3. O'quvchi yozgan xato so'zni o'qituvchi yozuv taxtasiga yozib ko'rsatadi

4. Barcha javoblar to'g'ri

|23 Qaysi tenglik to'g'ri berilgan?

1. 368 yil = 3 asr 68 yil 2. 3 sutka = 62 soat 3. 84 oy = 6 yil 4. 7230 kg = 7 sr 230 kg

|24 «Xavfsizlik orolchasi» nima?

1. DAN xodimlari turadigan joy 2. Avtomobil to'xtaydigan joy

3. Yo'lni kesib o'tayotgan piyodalar joy 4. Transport vositalari turadigan joy

|25 Dastur bo'yicha 3-sinf "Tabiatshunoslik" darsligi necha bo'limdan iborat ?

1. 6 bo'limdan iborat 2. 8 bo'limdan iborat

3. 5 bo'limdan iborat 4. 4 bo'limdan iborat

|26 Olmosh qaysi so'z turkumlari o'rnida keladi?

1. Ot, sifat, son 2. Ot, ravish, son 3. Sifat, harakat nomi, fe'l 4. Sifatdosh, son, ravish

|27 Oyisi 40 yoshda, qizi esa 17 yoshda. Necha yil oldin oyisining yoshi qizining yoshiga teng bo'lgan?

1. 23 yil oldin 2. 22 yil oldin 3. 24 yil oldin 4. 13 yil oldin

|28 «Kitobim-oftobim» (Toshkent)dagi "Onalar" haqidagi hikoya,ertak va she'rlar nechanchi mashg'ulotda berilgan?

1. 11-mashg'ulotda 2. 12-mashg'ulotda 3. 13-mashg'ulotda 4. 14-mashg'ulotda

|29 Qandolatchilik qo'shma korxonasida bir ish kunida 35 kg novvot, 67 kg konfet va 33 kg shokolad ishlab chiqarilgan bo'lsa, hammasi bo'lib shu kuni necha kg shirinlik tayyorlangan?

1. 135 kg 2. 130 kg 3. 145 kg 4. 150 kg

|30 Tanlovga 48 ta oq-qora tasvirli va undan 4 marta kam rangli fotosuratlar yuborildi. Tanlovga hammasi bo'lib nechta fotosurat yuborilgan?

1. 60 ta 2. 80 ta 3. 10 ta 4. 20 ta

9 variant

|1 Yiqilamiz, turamiz –
Shu ham o‘yin atalar.
Bizday necha yiqilib,
Katta bo‘lgan otalar.
She’rda nechta fe’l bor?

1. 4 ta 2. 3 ta 3. 4 ta 4. 5 ta

|2 Uzoqdan chaqaloqning yig‘isi eshitildi.

Gapdagi egani toping.

1. Uzoqdan 2. Chaqaloqning 3. Yig‘isi 4. Eshitildi

|3 Qaratqich kelishigini olgan otlarni toping.

1. Vatanning, mehnatning 2. Vatanni, mehnatni

3. Vatan, mehnat 4. Vatanda, mehnatda

|4 Qaysi qatordagi so‘zlar bo‘g‘in ko‘chirilmaydi?

1. Aka, opa, uka, uzoq 2. Tosh, tong, a‘lo

3. Xalal, xafa, vazn 4. So‘ng, vaj, tosh, va‘da

|5 Qaysi bandda antonim juftlik berilgan?

1. Qiyin-og‘ir 2. Chuchuk-nordon 3. Yengil-oston 4. Oson-qiyin

|6 Bugun maktabda Karimni ko‘rmadim.

Gapdan egani aniqlang.

1. Bugun 2. Maktabda 3. Karimni 4. Gapda ega berilmagan

|7 sh, ch, y bilan tugagan ismlarga qanday familiya xosil qiluvchi qo‘shimcha qo‘shiladi?

1. - ev, - eva 2. - yev, - yeva 3. - ov, - ova 4. - ev, ova

|8 O‘zbekistonning asosiy qismi qaysi iqlim mintaqasida joylangan?

1. Mo‘tadil 2. Tropik 3. Subtropik 4. Subaratika

|9 Yashikka 25 kg olma joylandi. Yashik massasi undagi olma massasining $\frac{3}{25}$ qismiga teng. Yashik massasini toping.

1. 1 kg 2. 2 kg 3. 3 kg 4. 4 kg

|10 Avtobusda bir necha yo‘lovchi bor edi. Birinchi bekatda 14 yo‘lovchi tushib, 9 kishi chiqqandan so‘ng avtobusda 27 ta yo‘lovchi bo‘ldi. Dastlab avtobusda nechta yo‘lovchi bo‘lgan?

1. 22 2. 32 3. 34 4. 38

|11 1 km² (kv. kilometr) necha kv. metr bo‘ladi?

1. 1000000 m² 2. 100000 m² 3. 1000 m² 4. 10000 m²

|12 $6 * x + 234 = 864$ Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 110 2. 105 3. 120 4. 115

|13 Davlat talabida boshlang‘ich sinflarda olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishlarining nimasini bilish belgilangan?

1. tartibini, shaklini 2. mazmunini, yo‘llarini

3. majmuasini, yo‘riqnomasini 4. majmuasini, usullarini

|14 DTS bo‘yicha 1-sinf o‘quvchilari O‘qishdan qanday ko‘nikmalarni egallagan bo‘lishlari kerak? (14-b; 8-b)

1. tovushlarni to‘g‘ri ajrata olish 2. tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish

3. harflarni to‘g‘ri o‘qiy olish 4. harflarni to‘g‘ri yoza olish

|15 Yangi dastur bo‘yicha 2-sinf sinfdan tashqari o‘qishning asosiy vazifasi nimadan iborat? (78-b; 23-b)

1. O‘quvchilarda badiiy adabiyot o‘qishga qiziqish uyg‘otish

2. Badiiy kitoblar bilan tanishtirish

3. Kitob bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish

4. Mustaqil o‘qishga o‘rgatish

|16 “Tabiat alifbosi” kitobining muallifini belgilang.

1. Quddus Hikmat 2. Zafar Diyor 3. Quddus Muhammadiy 4. Ilyos Muslim

|17 Sinfidan tashqari o'qish mashg'ulotlari uchun o'quvchilar avvalo, qaysi manbalardan o'qib keladilar?

1. gazeta va jurnallardan
2. "O'qish" darsligidan
3. sinfdan tashqari o'qish majmuasidan
4. sinf kutubxonasidan

|18 2-sinf Matematika yangi dasturining "Bo'lish" bo'limida qanday mavzular kiritilgan? (163-164-b.b; 37-b)

1. Millimetr
2. O'zaro teskari masalalar
3. Bo'lish amalining ma'nosi
4. Barcha javoblar to'g'ri

|19 Bozorda sotilmaydigan narsa?

1. Pul, vaqt
2. Aql, obro'
3. Obro', boylik
4. Hunar

|20 Radiusi 3 sm 5 mm bo'lgan aylananing diametrini toping.

1. 7 sm
2. 8 sm 20 mm
3. 10 sm 10 mm
4. 9 sm 25 mm

|21 Yangi tahrirdagi reyting Nizomi qachon tasdiqlangan?

1. 10.07.2005
2. 10.06.2006
3. 10.07.2006
4. 10.08.2006

|22 Ijodiy diktantning ahamiyati ko'rsatilgan qatorni toping.

1. O'quvchilarda izlanish
2. Ijod qilish
3. Mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyatlarining taraqqiy etishiga
4. Barcha javoblar to'g'ri

|23 Uy almashtirish haqidagi e'lon quyidagicha: «30 m² uyni kattaroq uyga almashtiraman. Har bir ortiqcha m² uchun 100 dollar to'layman». Agar kvartira taklif etuvchida 12 m² ortiqcha bo'lsa, necha dollar ustama to'lash kerak?

1. 1200 dol
2. 1100 dol
3. 1400 dol
4. 12 000 dol

|24 Kuni uzaytirilgan guruhlarining maqsad va vazifasi nimalardan iborat?

1. Bolalar hayotini zavqli o'tkazish
2. Bilimlarini mustahkamlash, mehnatga qiziqishlarini kuchaytirish
3. O'zlashtirgan ko'nikmalarini mustahkamlash
4. Barcha javoblar to'g'ri

|25 3-sinf "Tabiatshunoslik" darsligining qaysi bo'limida ona yurt tabiati yoritib berilgan?

1. "Tabiat va inson"
2. "O'simlik va hayvonat dunyosi"
3. "Ekologiya asoslari"
4. "Tuproqni asraymiz"

|26 Yonsa tutun chiqmaydi,

Hech yerga gard yuqmaydi.

Bas, gugurt chaqsang faqat,

Qaynar choy, pishar ovqat.

Ushbu she'rda fe'llar nechtaligini aniqlang.

1. 2 ta
2. 3 ta
3. 4 ta
4. 5 ta

|27 Sog'lom odam yuragi bir minutda 70 marta kengayib torayadi va har safar 100 gr qonni almashtiradi. Odam yuragi bir soat davomida qancha qonni almashtiradi?

1. 6 kg
2. 60 kg
3. 500 gr
4. 16 kg

|28 "Kitobim-oftobim-1"da kimning asari ko'p berilgan?

1. Q.Muhammadiy
2. P.Mo'min
3. T.Adashboyev
4. S.Barnoyev

|29 Ta'mirlash ustaxonasida 84 tonna ganch bor edi. Yana 32 tonna ganch keltirishdi. Qoldi 46 tonna ganch. Necha tonna ganch tarqatigan?

1. 116
2. 46
3. 70
4. 72

|30 Omborga 54 yashik olma va 36 yashik nok keltirildi. Ertalab do'konlarga 45 yashik ho'l meva jo'natildi. Omborda necha yashik ho'l meva qolgan?

1. 45 yashik
2. 40 yashik
3. 50 yashik
4. 55 yashik

10 variant

|1 Yetmish otning kuchi bor,

Oyog'ida tishi bor.

Charchash nima bilmaydi,

Dalada yumushi bor.

She'rdan nechta fe'l so'z turkumi bor?

2. chap tomondan
3. oldindan
4. yon tomondan

|23 Samolyotning o‘rtacha tezligi soatiga 600 km, poyezdning tezligi undan 10 marta kam, velosipedchining tezligi esa poyezd tezligidan 45 km kam. Velosipedchining tezligini aniqlang.

1. 5 km/s
2. 10 km/s
3. 15 km/s
4. 20 km/s

|24 Alifbe davri necha bosqichdan iborat?

1. 3 bosqichdan
2. 2 bosqichdan
3. 4 bosqichdan
4. 5 bosqichdan

|25 4-sinf "Tabiatshunoslik" darsligining qaysi bo‘limida O‘zbekiston Respublikasining tabiatini asrash bo‘yicha hujjatlar bilan tanishtiriladi?

1. Tabiatni asrash bo‘limida
2. Ekologiya asoslari bo‘limida
3. O‘lkamiz suv havzalari
4. To‘g‘ri javob berilmagan

|26 Qaysi qatordagi fe‘llar III shaxs birlikda kelgan?

1. Aytdi, aytmoqchi
2. Aytdilar, aytmoqchiman
3. Aytdik, aytmoqchimiz
4. Aytdilar, aytdik, aytyapti

|27 O‘quvchi sakkiz soat uxlaydi, maktabda 6 soat o‘qiydi, yo‘lga 2 soat sarflaydi, uyda 3 soat dars tayyorlaydi. Yuvinish, ovqatlanishga, yo‘lga qancha sarflasa shuncha bo‘lsa o‘quvchining bo‘sh vaqti qancha?

1. 3 soat
2. 4 soat
3. 5 soat
4. 2 soat

|28 “To‘rt tomoning qibla” deb qaysi ertak tugaydi?

1. Shum bola
2. Temir va shahzoda
3. Kal bilan boy
4. Shirin uyqu

|29 8 ; 10 ; 16 ; 22 sonlarining o‘rta arifmetik qiymatini toping.

1. 56
2. 46
3. 76
4. 14

|30 Bog‘dan 3500 kg olma terib olindi. Terib olingan olmalarning 1 qismi 80 ta bir xil yashikka joylandi. Shundan keyin 1900 kg olma qoldi. Har bir yashikka necha kg dan olma joylangan?

1. 20 kg
2. 10 kg
3. 22 kg
4. 30 kg

19 variant

|1 Ra'no chiqdi gulboqqa,

Ertalab gul uzmoqqa.

Sanobar opasiga,

Gulni sovg'a qilmoqqa.

She'rda nechta fe'l so'z turkumi bor?

1. 2 ta 2. 3 ta 3. 4 ta 4. 5 ta

|2 Baxtiyorning do'stlari har xil to'garaklarga qatnashadi.

Qaysi so'z ega bo'lib kelgan?

1. Baxtiyorning 2. Do'stlari 3. Har xil 4. To'garaklarga

|3 Sifat ishtirok etgan gapni belgilang.

1. Men havaskorlar to'garagiga yozildim 2. Bahsimiz qizg'in tus oldi

3. Go'dak qiyqirib kuldi 4. Do'stim shoshilganicha chiqib ketdi

|4 Ochiq bo'g'indan tashkil topgan so'zlarni aniqlang.

1. Havo, suv, tuproq 2. Daraxt, olma, qayiq

3. Charxpalak, kitob, jiya 4. O'sma, shaftoli, bola

|5 Qaysi qatordagi gapda sinonim so'zlar uyushib kelgan?

1. Maktabingning mulkini jon-u dilingdan saqla, ehtiyotla, ardoqla!

2. Mahallamizda tatar, o'zbek, rus va boshqa millatlar yashaydi

3. Bog'da bulbul va sa'va yoqimli sayramoqda

4. Siz kitobni va daftarni toza tuting

|6 Qaysi qatorda ega sifat vazifasida kelgan?

1. Ravshan sen bilan boradi 2. Yaxshi odamlar oramizda ko'paysin

3. To'g'ri odam egri so'zdan or qilar 4. U juda xursand bo'ldi

|7 Yangi "Alifbo"dagi harflarni yozishda yuqorisidan tutashtiriladigan kichik harflar nechta?

1. 3 ta; 2. 6 ta; 3. 5 ta; 4. 8 ta;

|8 Gazsimon jismlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. suv, neft, benzin 2. temir, tabiiy gaz, suv

3. Havo, suv, tabiiy gaz 4. havo, tabiiy gaz.

|9 Dinoraning 150 so'm puli bor. U pulining $\frac{2}{3}$ qismiga muzqaymoq olib yedi. Muzqaymoqqa necha

so'm sarflangan?

1. 100 so'm 2. 150 so'm 3. 30 so'm 4. 75 so'm

|10 3 ta sonning yig'indisi 67890 ga teng. Birinchi son 32576 ga teng, u ikkinchi sondan 10654 ga ortiq. Uchinchi sonni toping.

1. 13392 2. 13390 3. 13547 4. 12392

|11 1 km² (kilometr kvadrat) necha metr kvadrat bo'ladi?

1. 1000 m² 2. 100000 m² 3. 1000000 m² 4. 10000 m²

|12 5 * x - 5 = 10 Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 3 2. 4 3. 2 4. 5

|13 DTda kam komponentli sinflar to'g'risida nimalar belgilangan?

1. turli dasturlar bo'yicha dars berish 2. turli darsliklar bo'yicha dars berish

3. turli o'quv rejalar bo'yicha dars berish 4. barcha javoblar to'g'ri

|14 Yangi DTS da ko'p xonali sonlarni necha xonali sonlarga bo'lish belgilangan? (17-b; 13-b) 4-sinf

1. uch xonali songa 2. bir xonali songa 3. to'rt xonali songa 4. 1 va 2 xonali sonlarga

|15 Dastur bo'yicha boshlang'ich ta'lim rejasiga qanaqa ta'lim sohalari kiritildi? (10-b; 4-b)

1. Ona tili, o'qish, matematika, tabiat 2. Ona tili, matematika, odobnoma, tabiat

3. Ona tili, matematika, tabiat, inson va jamiyat 4. Ona tili, o'qish, matematika, mehnat

|16 Muayyan istak natijasida yuzaga keluvchi ovoz tovlanishi nima deyiladi?

1. pauza 2. ritm 3. urg'u 4. intonatsiya

|17 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari qachondan boshlanadi?

1. Sentabrning birinchi haftasidan 2. Ikkinchi yarim yillikdan
3. 1-fevraldan 4. To'g'ri javob yo'q
- |18 4-sinf "Matematika" fani yangi dasturi qaysi bo'lim bilan tugaydi? (172-177.b.b; 39-b)
1. Qo'shish va ayirish 2. Raqamlash. Kattaliklar.
3. ...takrorlash va umumlashtirish 4. ...umumlashtirish va bir tizimga solish
- |19 «Avesto» yaratilganligining necha yilligi keng nishonlandi?
1. 2500 2. 2700 3. 3500 4. 3800
- |20 Aylananing radiusi 60 sm bo'lsa, uning diametri necha dm bo'ladi?
1. 12 dm 2. 10 dm 3. 5 dm 4. 20 dm
- |21 MSNI tarkibidagi BKM elementlarining qancha foizi to'g'ri bajarilgan bo'lsa? uni "bajardi" deyiladi?
1. 40% 2. 45% 3. 50% 4. 55%
- |22 Dasturda uchinchi sinf o'quvchilari nechta so'zdan iborat bayon yozishlari ko'rsatilgan?
1. 65-70 so'zli 2. 50-40 so'zli 3. 55-60 so'zli 4. 35-40 so'zli
- |23 Toshkentdagi teleminora necha metrni tashkil etadi?
1. 375 m 2. 320 m 3. 530 m 4. 340 m
- |24 Alifbe davrining birinchi bosqichida qanday ishlar amalga oshiriladi?
1. gap, so'z, bo'g'in, tovushlar hosil qilish
2. so'zlarni to'g'ri yozish qoidalariga rioya qilish, kesma harflar bilan ishlash
3. gapni bosh harf bilan boshlash, eshitib yozish malakalarini shakllantirish
4. barcha javoblar to'g'ri.
- |25 Quyosh sistemasida nechta sayyora bor?
1. 9 ta 2. 8 ta 3. 7 ta 4. 6 ta
- |26 Qaysi qatordagi fe'llar I shaxs ko'plik qo'shimchasini olgan?
1. Tashidik, o'qidik, ishlayapti 2. Tashidik, o'qidik, ishlayapmiz
3. O'qiding, tashiding, tashidi 4. O'qidilar, o'qimoqchilar, tashidilar
- |27 48 tonna suvni bir nasos 6 soatda, ikkinchisi esa 3 soatda hayday oladi. Ikkala nasos birgalikda ishlasa, shu suvni necha soatda haydaydi?
1. 1 soatda 2. 2 soatda 3. 3 soatda 4. 4 soatda
- |28 "Kitobim -oftobim"da ushbu matnlarning qaysi biri rivoyat deb berilgan?
1. Ko'hinur 2. Kal bilan boy 3. Shirin uyqu 4. Baxillik
- |29 Lolaning bo'yi 140 sm. Naimaning bo'yi 130 sm. Ularning bo'yi o'rtacha necha sm?
1. 75 sm 2. 185 sm 3. 80 sm 4. 135 sm
- |30 Birinchi qopda 48 kg 600 g, ikkinchisida 39 kg 300 g un bor edi. O'rtacha hisobda qanchadan un bo'lgan?
1. 43 kg 950 g 2. 43 kg 900 g 3. 40 kg 90g 4. 43 kg 750 g

20 variant

|1 Maqsadimiz – o‘qimoq.

Gapdagi o‘qimoq so‘zi qaysi so‘z turkumi vazifasida kelgan.

1. Ot 2. Fe‘l 3. Sifat 4. Ravish

|2 Mening otam – paxtakor.

Gapdagi paxtakor so‘zi qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelgan.

1. Ega 2. Kesim 3. Hol 4. To‘ldiruvchi

|3 Ham undalma, ham ega ishlatilgan gapni belgilang.

1. Ona tabiatni asraylik 2. Qushlar – bizning do‘stimiz

3. Orol! Sening qurib ketishingga yo‘l qo‘ymaymiz 4. Xayr, jonajon qishlog‘im

|4 Quyidagi so‘zlarda jami nechta tovush, nechta harf yoki harf birikmasi bor? Tong, tosh, chana

1. 10 ta tovush, 7 harf, 3 harf birikmasi 2. 9 ta tovush, 8 harf, 3 ta harf birikmasi
3. 11 ta tovush, 11 harf, 1 ta harf birikmasi 4. 12 ta tovush, 11 harf, 1 ta harf birikmasi

|5 Qaysi qatordagi maqolda antonim so‘zlar ishtirok etgan?

1. Odob bozorda sotilmaydi 2. Oltin o‘tda bilinadi, odam mehnatda bilinadi
3. Yaxshilik nur keltirar, yomonlik zulmat 4. Hunar bo‘lsa qo‘lingda, non topilar yo‘lingda

|6 O‘tloqda bedana ko‘p, dangasada bahona ko‘p.

Gapdagi egani toping.

1. O‘tloqda bedana 2. Bedana, bahona 3. Dangasa, bahona 4. Gapda ega berilmagan

|7 Yozish vaqtida yorug‘lik qaysi tomondan tushishi kerak?

1. o‘ng tomondan 2. chap tomondan 3. orqa tomondan 4. oldindan

|8 Shamol – bu nima?

1. Issiq va sovuq havoning almashib turishi 2. Kuchli sovuqni olib kelishi
3. Fasllarning almashib turishi 4. Tun va kunning almashinib turishi

|9 3 ta sigirga 1 kunda 6 bog‘ pichan, 3 kg yem beriladi. 5 ta shunday sigir uchun 2 kunda qancha pichan va yem zarur?

1. 20 kg pichan va 10 kg yem 2. 10 kg pichan va 5 kg yem
3. 20 kg pichan va 6 kg yem 4. 10 kg pichan va 6 kg yem

|10 Berilgan 8 ta sondan birinchisi 120 ga teng. Har bir keyingi son avvalgisidan 15 ta kam. Shu 8 ta sonning yig‘indisini toping.

1. 540 2. 560 3. 550 4. 520

|11 Ayollar kuylagining chetlariga to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida tasma tikib chiqildi. Tasmaning eni 20 mm, bo‘yi 40 mm. Tasmaning yuzini toping.

1. 80 sm^2 2. 120 sm^2 3. 40 sm^2 4. 80 mm^2

|12 $2 * x - 2 = 6$ Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 4 2. 3 3. 6 4. 10

|13 DTda husnixat bo‘yicha nimalarni bilish ta’kidlangan?

1. husnixatni egallash 2. husnixat qoidalarini bilish
3. husnixat o‘rgatish usullarini bilish 4. barcha javoblar to‘g‘ri

|14 Yangi DTS da chizg‘ich, go‘niya va sirkuldan foydalanib nimalarni yasay olish ko‘rsatilgan? (18-b; 13-b) 4-sinf

1. to‘g‘ri to‘rtburchak, kesma 2. uchburchak, ko‘pburchak
3. aylanalar va uchburchak 4. beshburchak, aylana

|15 Yangi dasturda Matematika ta’limidan qanday ko‘nikmaga ega bo‘lish belgilangan? (16-b; 12-13-b) 4-sinf

1. million ichida sonlarni o‘qish 2. natural sonlarni taqqoslay olish
3. geometrik shakllarni tanish 4. son ulushlarini farqlay olish

|16 “Raqamlar bo‘ylab sayohat” nomli to‘plamning muallifini toping.

1. Hamza Imonberdiyev 2. Kavsar Turdiyeva
3. Umida Abduazimova 4. Aziz Abdurazzoq

|17 Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari qayerda o‘tkaziladi?

1. Sinfda 2. Sinfдан tashqarida 3. Kutubxonada 4. Zalda
- |18 4-sinf “Matematika” fani yangi dasturida Geometriyaga oid qanaqa mavzular ko‘rsatilgan?(173-b; 39-b)
1. parallelepiped 2. kub, shar 3. silindr, konus 4. piramida
- |19 «Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak», - deb kim aytgan?
1. Abdulla Avloniy 2. I.A.Karimov 3. Alisher Navoiy 4. A.Qodiriy
- |20 Radiusi 4 sm 5 mm bo‘lgan aylananing diametrini toping.
1. 40 sm 2. 6 sm 3. 9 sm 4. 10 sm
- |21 Davlat attestatsiyasi ishlarida qaysi nazorat amalga oshiriladi?
1. Oraliq nazorat 2. Joriy nazorat 3. Ijodiy soliq nazorati 4. Yakuniy nazorat
- |22 Dasturda 2-sinf o‘quvchilari necha so‘zdan iborat bayon yozishlari ko‘rsatilgan?
1. 30-45 so‘zdan 2. 55-60 so‘zdan 3. 35-40 so‘zdan 4. 50-40 so‘zdan
- |23 Samolyot 9 soat parvozda bo‘ldi. Dastlabki 4 soatda u 600 km/soat tezlik bilan, qolgan vaqtda esa 546 km/soat tezlik bilan uchdi. Samolyot butun masofani qanday o‘rtacha tezlik bilan uchib o‘tgan?
1. 270 km/soat 2. 370 km/soat 3. 470 km/soat 4. 573 km/soat
- |24 Nutq tovushlarini hosil qilishda qaysi nutq a‘zolari ishtirok etadi?
1. o‘pka-ko‘krak qafasi, milk va tishlar 2. bo‘g‘iz, burun bo‘shlig‘i, lablar
3. og‘iz bo‘shlig‘i va til 4. Barcha javoblar to‘g‘ri
- |25 Quyosh sistemasida yer nechanchi sayyora?
1. 3 2. 2 3. 4 4. 6
- |26 Kelasi zamon fe‘li qatnashgan gapni toping.
1. Men qushlarga don berdim 2. Zafar o‘zi yozgan she‘rini o‘qib bermoqchi
3. Arxeologlar qadimgi ashyolarni izlashmoqda 4. Derazamning oldida o‘rik o‘sgan
- |27 Sutkaning nimchoragi necha soat?
1. 2 soat 2. 1 soat 3. 3 soat 4. 4 soat
- |28 “Sirli xazina” ertagidagi xazina nimaning ichida bo‘ladi?
1. Sandiqchanning 2. Qutichaning 3. Xaltachaning 4. Ko‘zachaning
- |29 Bir son ikkinchisidan 20 ta ortiq. Ularning o‘rta arifmetik qiymati 60 ga teng. Shu sonlarni toping.
1. 50, 70 2. 40, 60 3. 45, 65 4. 55, 70
- |30 Do‘konda 280 ta televizor bor. Uning yettidan to‘rt qismi sotildi. Sotilgan televizorlar qolganlaridan nechta ortiq?
1. 4 ta 2. 40 ta 3. 10 ta 4. 20 ta

21 variant

|1 «Gulla» soʻzi qaysi soʻz turkumi boʻladi?

1. Ot 2. Olmosh 3. Feʼl 4. Ravish

|2 Qaysi qatorda son soʻz turkumi ega vazifasida kelgan?

1. Ikkovimiz dala aylandik 2. Men ikkinchi sinfda oʻqiyman
3. Karim ikkita kitob oldi 4. Bino ikki qavatli ekan

|3 I shaxs birlikdagi feʼlni aniqlang.

1. Yoqdim 2. Tanla 3. Gapirdi 4. Ochildilar

|4 Qaysi unlidan soʻng yangi alifboda tutuq belgisi qoʻyilmaydi?

1. «oʻ» dan soʻng 2. «u» dan soʻng 3. «e» dan soʻng 4. «a» dan soʻng

|5 Qaysi qatordagi maqolda sinonim soʻzlar ishlatilgan?

1. Yaxshilik nur keltirar, yomonlik zulmat 2. Oz soʻzla, koʻp tingla
3. Doʻst achitib gapirar, dushman kuldirib 4. Xalq ishi – el ishi

|6 Qaysi qatorda ega ishtirok etgan?

1. Yalpiz – xushboʻy oʻsimlik 2. Kitobni qadrlang
3. Xatni qalam bilan yozdi 4. Karimning kitobi menda

|7 Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilarning yozish vaqti necha daqiqadan oshmasligi kerak?

1. 10-15min; 2. 8-10min; 3. 5-10min; 4. 5-15min;

|8 Gʻoʻza mevasi nima deb ataladi?

1. koʻsak 2. chigit 3. paxta 4. tola

|9 Javondagi kitobning $\frac{3}{7}$ qismi 42 dona. Jami qancha?

1. 98 2. 18 3. 96 4. 94

|10 Uchta sonning yigʻindisi 13 000 ga teng. Sonlarning biri eng katta uch xonali son, ikkinchisi eng katta toʻrt xonali bilan eng katta ikki xonali sonlarning ayirmasiga teng. Uchinchi sonni toping.

1. 2110 2. 2101 3. 1221 4. 2110

|11 Kvadratning perimetri 60 sm. uning tomoni va yuzini toping.

1. Tomoni 10 sm, $S = 115 \text{ sm}^2$ 2. Tomoni 15 sm, $S = 225 \text{ sm}^2$
3. Tomoni 12 sm, $S = 205 \text{ sm}^2$ 4. Tomoni 14 sm, $S = 225 \text{ sm}^2$

|12 $4 * x + 5 = 25$ Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 4 2. 3 3. 2 4. 5

|13 DTda lotin yozuvidagi matnni oʻqish haqida nimalar qayd etilgan?

1. bir daqiqada 80-90 soʻzni oʻqiy olish 2. bir daqiqada tez va ravon oʻqish
3. ifodali oʻqib, qayta hikoya qilib bera olish 4. bir qarashda ifodali oʻqish

|14 Yangi DTS da “Tabiat”dan oʻquvchilar bilishlari kerak boʻlgan talabni toping. (18-20; 15-b) 4-sinf

1. – kompyuter va uning imkoniyatlarini
2. – hozirgi zamon fan-texnikasining taraqqiyotini
3. – elektr asboblari va ulardan foydalanishni 4. – globus Yerning andozasi ekanligini

|15 Yangi dasturda necha ichida ogʻzaki hisoblarni bajara olish belgilangan? (17-b; 12-b) 4-sinf

1. 100 ichida 2. 200 ichida 3. 500 ichida 4. 1000 ichida

|16 Samarqandlik taniqli bolalar shoiri Qambar Ota yozgan kitobni belgilang.

1. “Tinim bilmas shamolvoy” 2. “Toshpolvon bilan Ishpolvon”
3. “Chavandoz orzusi” 4. Barcha javob toʻgʻri

|17 Sinfdan tashqari oʻqish mashgʻuloti necha qismga boʻlinadi?

1. 1 qismga 2. 2 qismga 3. 3 qismga 4. 4 qismga

|18 4-sinf “Matematika” fani yangi dasturining amaliy ishlar boʻlimida parta ustida nima tuzish belgilangan? (173-b; 39-b)

1. uchburchak 2. toʻrtburchak 3. kvadrat 4. koʻpburchak

|19 «Ilm egallang! Ilm sahroda doʻst, hayot yoʻllarida tayanch, yolgʻiz damlarda yoʻldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qaygʻuli onlarda madadkor, odamlar orasida zeb-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir». Ushbu soʻzlarni kim aytgan?

1. Muhammad payg'ambar
 2. Imom al-Buxoriy
 3. Abu Iso Muhammad at-Termiziy
 4. Xorazmiy
- |20 Aylananing radiusi 30 sm bo'lsa, uning diametri necha dm ga teng?
1. 3 dm
 2. 30 dm
 3. 15 dm
 4. 6 dm
- |21 "TB"ning ma'nosi nima?
1. To'yintiruvchi ball
 2. Ta'minlangan ball
 3. Tindiruvchi ball
 4. To'ldiruvchi ball
- |22 Dasturda 4-sinf o'quvchilari necha so'zdan iborat bayon yozishlari ko'rsatilgan?
1. 70-80 so'zdan
 2. 65-70 so'zdan
 3. 65-75 so'zdan
 4. 75-80 so'zdan
- |23 Sayohatchilar 33 km yo'l bosishgandan keyin, o'tilganidan yana 25 km ortiq yo'l qoldi. Sayohatchilar hammasi bo'lib necha km yo'l bosishi kerak?
1. 91 km
 2. 81 km
 3. 71 km
 4. 61 km
- |24 Savod o'rgatishni to'g'ri tashkil etish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
1. didaktikaga e'tibor berib, uni yutuqlar bilan to'ldirib borish
 2. o'quvchilarning yosh va fizologik jihatlariga
 3. o'qish va yozishning uzviyligiga
 4. alifbo va unga qo'shimcha materiallardan ijodiy foydalanishga
- |25 Qaysi sayyoraning eni 60 000 km gacha yotadigan halqasi bor?
1. Saturn
 2. Neptun
 3. Pluton
 4. Venera
- |26 Hozirgi zamon fe'li qatnashgan gapni toping.
1. Mana, qor aralash yomg'ir yog'yapti
 2. Amerika juda taraqqiy etgan
 3. Orzuyingizning ushalishi uchun nima qilmoqchisiz
 4. Ular qishloq tongini kuzatdilar
- |27 Aprel oyining $\frac{1}{5}$ qismi bulutli, bulutli kunlarning $\frac{1}{6}$ qismi yomg'irli kun, qolgan kunlari havo ochiq bo'ladi. Aprel oyida necha kun bulutli (yomg'irli, ochiq) bo'lgan?
1. 6 kun bulutli, 1 kun yomg'irli, 24 kun ochiq
 2. 6 kun bulutli, 1 kun yomg'irli, 4 kun ochiq
 3. 6 kun bulutli, 10 kun yomg'irli, 24 kun ochiq
 4. 8 kun bulutli, 1 kun yomg'irli, 24 kun ochiq
- |28 "Ona degan nom" she'ri kimning qalamiga mansub?
1. A.Oripov
 2. Q.Muhammadiyev
 3. P.Mo'min
 4. S.Barnoyev
- |29 200 va 400 sonlarining o'rta arifmetik qiymatini toping.
1. 300
 2. 150
 3. 200
 4. 250
- |30 Bichiqchilar 1 oy davomida 7236 m² chramni tejab qolishdi. Agar har bir juft poyabzalga 18 dm² chram sarflansa, tejalgan charm hisobiga yana necha juft poyabzal tikish mumkin?
1. 402
 2. 403
 3. 404
 4. 405

22 variant

|1 «Suvsira» soʻzi qaysi soʻz turkumi boʻladi?

1. Ot 2. Sifat 3. Ravish 4. Feʼl

|2 «Yaxshi» soʻzi qaysi qatorda ega vazifasida kelgan?

1. Yaxshilar oramizda koʻpaysin 2. Bu odam yaxshiga oʻxshaydi
3. Yaxshi kunlar hali oldinda 4. Yaxshini qadriga yetish kerak

|3 Chiqish kelishigida qoʻllangan otlarni belgilang.

1. Televizorda koʻrmoq 2. Oʻqituvchidan oʻrganmoq
3. Chiroyli gullar 4. Kitobni sevmok

|4 Qaysi qatordagi soʻzlarni boʻgʻin koʻchirish mumkin?

1. aka, singil, koʻngil 2. opa, gulsiz, ona
3. singil, koʻngil, yomon 4. yomon, yaxshi, tong

|5 Sinonim soʻzlar qaysi qatorda toʻgʻri berilgan?

1. Kasal, bemor, betob 2. Oq, qora, qizil, sariq
3. Ilgari-hozir, uzun-qisqa 4. Jahl, aql, doʻst, oʻrtoq

|6 Karimjonning barmoqlari orasida kapalak tinmay pitirlardi.

Gapdan egani toping.

1. Karimjonning 2. Barmoqlari 3. Kapalak 4. Orasida

|7 Har bir ona tili darslarida husnixat uchun necha daqiqa ajratiladi?

1. 8-10 min; 2. 5-10 min; 3. 10-15 min; 4. 6-10 min;

|8 Ikki yillik oʻsimliklar qaysi qatorda koʻrsatilgan?

1. bodring, sabzi, tarvuz 2. tarvuz, qovun, pomidor
3. karam, piyoz, sabzi 4. karam, kartoshka, sholgʻom

|9 Telekoʻrsatuv 1 soat-u 20 minut davom etdi. Bu vaqtning $\frac{3}{40}$ qismini turli reklamalar egalladi.

Reklamalar necha minut vaqtni olgan?

1. 60 minut 2. 6 minut 3. 5 minut 4. 12 minut

|10 60 yoshga kirgan kishi necha sutka (1 yil = 365 kun) yashagan boʻladi?

1. 21900 2. 16701 3. 21000 4. 21750

|11 Toʻgʻri toʻrtburchak shaklidagi basseyinning perimetri 160 m. Uning boʻyi enidan 20 m ortiq boʻlsa, basseyning boʻyi va enini toping.

1. Boʻyi 60 m, eni 40 m 2. Boʻyi 50 m, eni 30 m
3. Boʻyi 40 m, eni 40 m 4. Boʻyi 80 m, eni 60 m

|12 $4 * x + 1 = 17$ Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 4 2. 5 3. 6 4. 2

|13. DTda boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini attestatsiya qilish haqida nimalar koʻrsatilgan?

1. kerakli hujjatlarni bilish 2. tartib-qoidalarini bilish
3. toyifalarni koʻtarish yoʻllarini bilish 4. nizom, yoʻriqnomalar bilan tanish boʻlish

|14 Yangi DTS da “Tabiat”dan ega boʻlishlari lozim boʻlgan malakani toping. (18-20-b; 15-b) 4-sinf

1. - ... jism massasini oʻlchay olish 2. - ... havo haroratini oʻlchay olish
3. - ... dunyo xaritasidan Oʻzbekiston hududini topa olish
4. - ... gazdan foydalana olish

|15 2-sinf ona tili yangi dasturida qaysi qatordagi soʻzlarning barchasi boʻgʻin koʻchirish uchun boʻlinmasligi taʼkidlangan? (111-b; 26-b)

1. vaʼda, mashʼal, taʼlim 2. singil, koʻngil, dengiz
3. elak, oʻrik, ona, ahil 4. elak, terak, etak

|16 Safar Barnoyev qaysi viloyatda tugʻilgan?

1. Andijonda 2. Buxoroda 3. Samarqandda 4. Toshkentda

|17 1-sinf sinfdan tashqari oʻqish boʻyicha 1-mashgʻulotida qanday ishlar amalga oshiriladi?

1. Maktab kutubxonasiga sayohat uyushtiriladi 2. Sinf kutubxonasi tashkil etiladi
3. Kitoblar haqida tushuncha beriladi 4. Oila kutubxonasi haqida eslatiladi

|18 4-sinf “Matematika” fani yangi dasturining “Rivojlantiruvchi mashqlar”ida nimalar haqida ta’kidlangan? (174-b; 40-b)

1. matematik misollar 2. matematik o‘yinlar 3. matematik diktant 4. matematik fokuslar

|19 «Hunar bo‘lsa qo‘lingda, non topilar yo‘lingda». Bu nima?

1. She’r 2. Hadis 3. Maqol 4. Rivoyat

|20 Radiusi 7 sm 5 mm bo‘lgan aylananing diametrini toping.

1. 15 dm 2. 10 dm 3. 20 dm 4. 30 dm

|21 Vazirlar Mahkamasining 203-sonli qarorining nechanchi bandida reyting to‘g‘risida aytilgan?

1. 3 2. 4 3. 5 4. 7

|22 Dasturda 1-sinf o‘quvchilari qaysi diktant turlaridan foydalana olishlari ko‘rsatilgan?

1. Lug‘at diktant, izohli diktant 2. Rasmlil diktant, nazorat diktant

3. Saylanma diktant, ko‘rsatish diktanti, ijodiy diktant, erkin diktant

4. Lug‘at diktant, izohli diktant, rasmlil diktant, nazorat diktant

|23 Geologlar 144 km yo‘l yurishdi. Ular dastlab 60 km/soat tezlik bilan 2 soat mashinada yurishdi, keyin qolgan yo‘lni 6 km/soat tezlik bilan otda bosib o‘tishdi. Ular qancha vaqt otda yurishgan?

1. 3 soat 2. 4 soat 3. 5 soat 4. 6 soat

|24 Savod o‘rgatish darslari dastur bo‘yicha qachondan-qachongacha davom etadi?

1. 2-sentabrdan 30-dekabrgacha 2. 2-sentabrdan 30-noyabrgacha

3. 2-sentabrdan 30-yanvargacha 4. 2-sentabrdan.30-martgacha

|25 Ulug‘bekning astronomik katologi .. deb ataladi?

1. «Ziji jadidiy Ko‘rogoniy» 2. «Ziji Elxoniy»

3. «Matli ussa‘dayn va majmaul bahrayn» 4. To‘g‘ri javob yo‘q

|26 O‘tgan zamon fe‘li qatnashgan gapni toping.

1. Quyosh charaqlab nurin sochmoqda 2. Derazamning oldida o‘rik o‘sgan

3. Dilnozaning uyiga Sarvi xola chiqdi 4. Yomg‘ir maydalab yog‘yapti

|27 Ulug‘ o‘zbek shoiri Muqumiy 1851 yili tavallud topdi va 1903 yili vafot etdi. Muqumiy nechanchi asrda tug‘ilgan va necha yil umr ko‘rgan?

1. XIX asrda tug‘ilgan va 52 yosh umr ko‘rgan

2. XX asrda tug‘ilgan va 52 yosh umr ko‘rgan

3. XXI asrda tug‘ilgan va 52 yosh umr ko‘rgan

4. XVIII asrda tug‘ilgan va 52 yosh umr ko‘rgan

|28 “Kitobim - oftobim”dagi qaysi matnda podsho mot bo‘ladi?

1. Aldar ko‘saning eshagi 2. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi

3. Lopchi 4. Bajarib bo‘lmaydigan buyruq

|29 885 dan 177 necha marta kichik?

1. 7 2. 6 3. 8 4. 5

|30 Ishchi reja bo‘yicha 21 ish kunida jami 945 ta detal tayyorlashi kerak edi. Lekin u rejani muddatidan oldin 15 ish kunida bajardi. Ishchi har kuni rejadan nechta ortiq detal tayyorlagan?

1. 18 ta 2. 17 ta 3. 28 ta 4. 38 ta

23 variant

|1 Fe'l so'z turkumi to'g'ri berilgan qatorni toping.

1. Suvla, suvsira, gulla, o'qi 2. Suvsira, gulla, gulzor, tuzla
3. Begonasira, gulla, tuzla, iz 4. Tabrikla, quvonchli, bor, ol

|2 Mening kitobim bor edi.

Gapdagi qaysi so'z ega vazifasida kelgan?

1. Mening 2. Kitobim 3. Bor 4. Gapda ega berilmagan

|3 Ot so'z turkumi berilgan qatorni aniqlang.

1. Gulzor, baxt, iz 2. Guldor, guldor, suvsira 3. Tabrikla, baxt, iz 4. Ol, bosh, quvonch

|4 Qaysi qatorda jarangli undoshlar to'liq ko'rsatilgan?

1. g, b, v, r, ng 2. p, v, b, d, x 3. g, v, r, ng, q 4. p, b, k, t, s, ch

|5 Qaysi qatordagi gapda sinonim so'zlar ishtirok etgan?

1. Dars vaqtida sergak, sezgir, ziyrak bo'l 2. Oppoq qor hamma yoqni qoplagan
3. Yaxshi gap kam, yomon gap ham bir og'izdan chiqadi
4. Shaharda baland-past, katta-kichik binolar ko'p ekan

|6 *Maktabimizning bog'i bor.* Gapdagi «Maktabimizning» so'zi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

1. aniqlovchi 2. ega 3. to'ldiruvchi 4. hol

|7 Qaysi harfga elementlar qo'yish orqali 9 ta harf yaratish mumkin?

1. o; 2. l; 3. n; 4. p;

|8 Oy yuzasi Yer yuzasidan necha baravar kichik?

1. 106 2. 14 3. 18 4. 170

|9 Abbos 450 so'mga kitob sotib oldi. Bu pul undagi jami pulning $\frac{3}{5}$ qismiga teng. Abbosda necha

so'm bo'lgan?

1. 750 so'm 2. 775 so'm 3. 700 so'm 4. 650 so'm

|10 Agar bir songa 7 ni qo'shib, yig'indini 7 ga bo'lib, bo'linmadan 7 ni ayirib, ayirma 7 ga ko'paytirilsa natijada 7 hosil bo'ladi. Bu qanday son?

1. 49 2. 46 3. 39 4. 69

|11 To'g'ri to'rtburchakning eni 10 sm, bo'yi esa enidan 7 marta katta. To'g'ri to'rtburchakning yuzi qanchaga teng?

1. 700 sm 2. 400 sm 3. 500 sm 4. 600 sm

|12 $8/x - 2 = 2$ Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 2 2. 4 3. 12 4. 6

|13 DTDa ta'lim tizimlaridan qaysi birini bilish belgilangan?

1. pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini 2. qayta tayyorlash tizimini
3. malaka oshirish tizimini 4. Barcha javoblar to'g'ri

|14 Yangi DTS da "Inson va jamiyat" sohasi qaysi fanga oid talablar bilan boshlanadi? (20-22-b; 15-b)

1. Huquq 2. Odobnoma 3. Musiqa 4. Jismoniy tarbiya

|15 2-sinf ona tili yangi dasturi bo'yicha so'z oxiridagi jarangli undoshning yozilishini tekshirish uchun nima qilish kerak? (111-b; 26-b)

1. shu so'z oxiriga qo'shimcha qo'shish 2. yana bir so'z qo'shish
3. lug'atdan ko'rish 4. unli tovush qo'shish

|16 Italiyalik bolalar shoirini belgilang.

1. Sharl Perro 2. Aka-uka Grimmlar 3. Janni Rodari 4. Hans Kristian Andersen

|17 1-sinf 1 yarimyilligida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari uchun o'quvchilarga kim o'qib beradi?

1. O'qituvchi 2. Oila a'zolari 3. O'zlari 4. Barcha javob to'g'ri

|18 4-sinf "Matematika" fani yangi dasturida kasrlar bo'yicha qaysi mavzular keltirilgan? (175-b; 39-41-bb)

1. Kasrlar 2. Kasrlar tarixidan 3. Bo'lish va kasrlar 4. Kasrlar mavzusi keltirilmagan

|19 Odobli inson fazilatlarini belgilang.

1. Kattalarni hurmatlash, kamtar, rostgo'y 2. Kamtar, dilozor, o'zbilarmon
 3. Hasadgo'y, insofli 4. To'g'riso'z, qaysar
- |20 Diametri 80 sm bo'lgan doiraning radiusi necha dm bo'ladi?
1. 8 dm 2. 4 dm 3. 6 dm 4. 40 dm
- |21 Reyting tizimining bosqichli nazorati nechanchi sinflarda o'tkaziladi?
1. 2-4 2. 3-4 3. 4-6 4. 4-8
- |22 Ijodiy diktant qanday amalga oshiriladi?
1. O'rganilgan qoidaga mos so'z, so'z birikmalari beriladi
 2. Biror mavzuga oid so'roqlar beriladi
 3. Mavzu bo'yicha o'quvchilarga tushuncha beriladi
 4. Barcha javoblar to'g'ri
- |23 Ertalab soat 10 da temiryo'l vokzalidan qarama-qarshi yo'nalishda ikkita poyezd yo'lga chiqdi va soat 13 da ular orasidagi masofa 330 km bo'ldi. Agar poyezdlardan birining tezligi 50 km/soat bo'lsa, ikkinchi poyezdning tezligini toping.
1. 40 km/soat 2. 50 km/soat 3. 60 km/soat 4. 70 km/soat
- |24 Alifbo davrining ikkinchi bosqichida nimalarga o'rgatiladi?
1. unli tovushlar, bo'g'in hosil qilishga 2. so'zlarni o'qishga
 3. matn o'qish va so'zlab berishga 4. rasm asosida hikoya tuzishga
- |25 Tabiat ta'lim sohasiga qaysi fanlar kiradi?
1. Tabiatshunoslik va atrofimizdagi olam 2. Tabiatshunoslik
 3. Atrofimizdagi olam 4. Tabiatshunoslik, biologiya
- |26 Birlikda kelgan kishilik olmoshlarini toping.
1. Men, sen 2. Men, biz 3. Men, siz, u 4. Men, sen, u
- |27 Ali Qushchi 1402 yil tavallud topdi va 1474 yil vafot etdi. Ali Qushchi necha yil umr ko'rgan, nechanchi asrda vafot etgan?
1. XV asrda vafot etgan 72 yil umr ko'rgan
 2. XIV asrda vafot etgan 72 yil umr ko'rgan
 3. XIV asrda vafot etgan 71 yil umr ko'rgan
 4. XV asrda vafot etgan 71 yil umr ko'rgan
- |28 "Kitobim -oftobim"da Sharl Perroning qaysi asarlaridan parcha keltirilgan?
1. Qizil shapkacha 2. Jimjiloq 3. Etik kiygan mushuk 4. Uyqudagi malika
- |29 6 ta yuzlik, 4 ta o'nlik, 2 ta birlik necha bo'ladi?
1. 6420 2. 642 3. 60402 4. 60,40,2
- |30 1 800 ta kitobni muqovalash kerak. Bir usta bu ishni 10 kunda, ikkinchisi 15 kunda bajardi. Ikkala usta birgalikda ishlasa, bu ishni necha kunda bajaradi?
1. 4 kunda 2. 5 kunda 3. 6 kunda 4. 7 kunda

|1 Yoqimtoy kompozitor,
Bo'lsammi deb o'ylayman.
O'zim yozib termasin,
O'zim kuyin kuylayman.

Ushbu misrada nechta fe'l so'z turkumi bor?

1. 2 ta 2. 3 ta 3. 4 ta 4. 5 ta

|2 Chaqaloqning yig'isi uzoqdan eshitildi.

Gapdan egani toping.

1. Chaqaloqning 2. Yig'isi 3. Uzoqdan 4. Ega berilmagan

|3 Berilgan gapda nechta son borligini aniqlang.

Qora qayin bir kunda to'rt yuz litr suvni bug'ga aylantiradi.

1. To'rtta 2. Uchta 3. Beshta 4. Ikkita

|4 Nutq tovushlar hosil bo'lishiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?

1. 2 ga 2. 3ga 3. 4 ga 4. 1 ga

|5 Qaysi gapda qarama-qarshi so'zlar ishtirok etgan?

1. Kitobda hikmatli so'zlar ko'p 2. To'g'ri odam egrini so'zidan or qiladi

3. Shaharda baland chiroyli, ko'rkam binolar ko'p

4. Uzukning ko'zi qimmatbaho toshdan edi

|6 *O'qituvchi bilan kinoga bordik.* Gapdagi o'qituvchi bilan so'zi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

1. aniqlovchi 2. to'ldiruvchi 3. hol 4. ega

|7 Qaysi qatodagi so'zlar bo'g'inga ajratilmay yoziladi?

1. osh, tosh, qurt, so'ng 2. oktabr, keng, a'lo, nutq

3. tong, bong, istak, tor 4. labz, qo'y, mayil, yer

|8 Quyoshdan eng uzoq sayyora ...?

1. Merkuriy 2. Venera 3. Yer 4. Pluton

|9 5-sinfda 35 ta o'quvchi bor. Ularning $\frac{4}{7}$ qismini o'g'il bolalar tashkil etadi. Shu sinfda necha qiz

bola o'qiydi?

1. 15 2. 10 3. 12 4. 14

|10 Qishloqdan shaharga tuxum tashilganda, har o'n tuxumdan bittasi sinadi. Shaharga 100 ta butun tuxum olib borish uchun nechta tuxumni avtomobilga ortish kerak?

1. 100 2. 110 3. 115 4. 120

|11 To'g'ri to'rtburchakning yuzi 360 sm^2 , tomonlaridan biri (bo'yi) 30 sm. Perimetri shu to'g'ri to'rtburchakning perimetriga teng bo'lgan kvadratning yuzini toping.

1. 441 sm^2 2. 442 sm^2 3. 342 sm^2 4. 441 sm^2

|12 $x + 215 = 481$ Ushbu tenglamaning javobini toping.

1. 203 2. 267 3. 266 4. 251

|13 DTda kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiyaviy ishlar yuzasidan ta'kidlangan vazifalarni aniqlang.

1. bu ishlarning mazmun-mundarijasini bilish 2. shakllari va prinsiplarini bilish

3. tashkil qilish va amalga oshirishni bilish 4. yo'l-yo'riqlarini bilish

|14 Yangi DTS da "Musiqaga oid" qo'yilgan talablarni aniqlang.

(20-21-b; 15-b)

1. -mumtoz kuylarni tushunish 2. -musiqaga oid turli atamalarni bilish

3. -barcha cholg'u asboblarni bilish 4. -nota yozuvlarini bilish

|15 2-sinf yangi dasturida qaysi so'z turkumlariga kiruvchi so'zlarni o'rgatish belgilangan? (111-112-b.b; 26-b.)

1. ot, sifat, son 2. ot, fe'l, sifat, son 3. ot, sifat, son, olmosh 4. ot, sifat, son, ravish

|16 Qaysi harfning nomi noto'g'ri yozilgan?

1. (ka) 2. (qa) 3. (ha) 4. (xa)

|17 A.Ko'chimovning "Topib kelaman" nomli she'rida nevara buvisiga nimani topib kelaman deydi? (2-sinf "Kitobim-oftobimdan")

1. Ro'molni 2. Uyquni 3. Ko'zoynakni 4. Hassani

|18 4-sinf "Matematika" fani yangi dasturining "Amaliy ishlari"da nimalar yasash sanab o'tilgan? (176-b; 40-b)

1. piramida 2. parallelepiped 3. shakllar 4. aylana, shar

|19 3-sinf odobnoma darsligining muallifi kim?

1. O.Musurmonova 2. M.G'ulomov 3. T.G'afforova 4. O.Hasanboeva

|20 Radiusi 2 sm 5 mm bo'lgan aylananing diametrini toping.

1. 5 sm 2. 50 sm 3. 6 sm 4. 4 sm

|21 Reyting tizimida o'quvchilarning bo'shlig'i qanday to'ldiriladi?

1. Uyga vazifa bilan 2. Ijodiy ishlarning bajarilishi bilan

3. Kunlik va to'ldiruvchi so'rovlar bilan 4. To'garaklarda qanashish bilan

|22 1-2-sinf o'quvchilarining tekshirish diktantlari qanday tekshirilishi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. Xatolari ko'rsatilmaydi 2. Xatolari ko'rsatiladi
3. Xatolari tuzatib qo'yiladi 4. Xatolari ko'rsatiladi va tuzatiladi

|23 Sayohatchilar uch kunda 120 km yo'l yurdilar. Birinchi kuni hamma yo'lning $\frac{2}{6}$ qismini, ikkinchi

kuni esa hamma yo'lning $\frac{4}{8}$ qismini yurdilar. Uchinchi kuni sayohatchilar necha kilometr yo'l yurganlar?

1. 10 km 2. 20 km 3. 30 km 4. 40 km

|24 Musiqaning ahamiyati nimada?

1. Xalqlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishda.
2. Insonni ma'naviy jihatdan yuksaltirishda, insonni ruhan boyitishda
3. Xalqlarni bir-biri bilan birlashtirishda 4. Barchasida

|25 Tabiatni muhofaza qilish haqida konstitusiyaning qaysi moddasida ko'rsatib o'tilgan?

1. 50 modda 2. 43 modda 3. 41 modda 4. 40 modda

|26 II shaxs ko'plikda kelgan gapni toping.

1. Sizni tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman 2. Biz bugun kinoga bordik
3. Men hayotdan juda ko'p narsalarni o'rgandim 4. Sen yozgan xatni oldim

|27 Abu Rayhon Beruniy 973 yil tavallud topgan va 1048 yilda vafot etgan. Abu Rayhon Beruniy necha yil umr ko'rgan va nechanchi asrda vafot etgan?

1. 75 yil XI asr 2. 74 yil XI asr 3. 75 yil X asr 4. 74 yil X asr

|28 "Sirli xazina" ertagining muallifi kim?

1. Mirkarim Osim 2. Oybek Hakimov 3. Turg'unboy G'oyipov 4. Erkin Malikov

|29 1000 metr gazlama necha dm bo'ladi?

1. 10 2. 1000 3. 10000 4. 110

|30 Bo'yi 12 metr, eni 5 metr va balandligi 3 metr bo'lgan somonxona xashak bilan to'ldirildi. Agar 1 m³ xashak 60 kg kelsa, bu xonaga qancha xashak joylagan?

1. 10 t 800 kg 2. 10 t 900 kg 3. 12 t 800 kg 4. 10 t 120 kg

- |1 Binafshalar ochildi,
Chakkangga taq, chakkangga.
Atir hidi sochildi,
Chakkangga taq, chakkangga!
She'riy parchada nechta fe'l so'z turkumi bor?
1. 2 ta 2. 3 ta 3. 4 ta 4. 5 ta
- |2 Nigoraning onasi fizika o'qituvchisi bo'lib ishlaydi.
Gapda qaysi so'z ega bo'lib kelgan?
1. Nigoraning 2. Onasi 3. Fizika 4. O'qituvchisi
- |3 Biz bu sovg'ani o'qituvchimizga oldik.
Gapdagi «Biz» so'zi qaysi so'z turkumi?
1. Ot 2. Olmosh 3. Ega 4. Sifat
- |4 To'rt harfli so'zlar berilgan qaysi qatorda harfdan tovush miqdori kam?
1. ofat, barg 2. soat, elak 3. payt, ipak 4. tong, zang
- |5 Qaysi qatordagi gapda ibora ishtirok etgan?
1. Oralaridan jinday gap qochdi 2. Hovuz bo'yida katta daraxt o'sardi
3. Burgutning ko'zi o'tkirdir 4. Ona bilan bola - gul bilan lola
- |6 O'qimoq – yuksalmoq. Gapdagi o'qimoq so'zi qaysi gap bo'lagi vazifasida qo'llanilgan?
1. ega 2. to'ldiruvchi 3. hol 4. kesim
- |7 Bolalarning yozuvlarini baholashda nimalarga e'tibor beriladi?
1. harflarning to'g'riligida, orfografik xatolariga
2. so'zlarning qisqaligiga
3. harflarning qiyaligi, elementlarning ulanishiga, imlo xatolariga
4. daftarning to'g'ri tutilishi va ozodaliligiga
- |8 Quyoshga eng yaqin sayyora . . . ?
1. Merkuriy 2. Venera 3. Yer 4. Mars
- |9 O'rik quritilganda undan $\frac{7}{20}$ qism turshak tushadi. 160 kg o'rikdan qancha turshak olish mumkin?
1. 56 kg 2. 46 kg 3. 66 kg 4. 54 kg
- |10 Soat oltida osma soat 6 marta bong urdi. Agar birinchi bongdan oltinchi bonggacha 30 sekund ketgan bo'lsa, soat 12 da 12 marta bong urishi uchun qancha vaqt ketadi?
1. 66 sekund 2. 55 sekund 3. 45 sekund 4. 68 sekund
- |11 Tasmaning to'rtidan bir qismi 20 sm ga teng bo'lsa, tasmaning uzunligi necha sm bo'ladi?
1. 5 sm 2. 40 sm 3. 80 sm 4. 25 sm
- |12 $526 - x = 378$ Ushbu tenglamaning javobini toping.
1. 149 2. 148 3. 100 4. 150
- |13 DTda bog'cha-maktab majmualari to'g'risida nimalarni bilish ko'rsatib o'tilgan?
1. ularning me'yoriy hujjatlarini 2. Nizom va konsepsiyasini
3. ta'lim-tarbiya ishlarining shakl va usullarini 4. bu ishlarining tartib-qoidalarini
- |14 Yangi DTS ning "Tasviriy san'atga oid" talablarida nimalarni tasvirlay olish belgilangan? (21-b; 16-b) 4-sinf
1. odam 2. hayvon 3. qush 4. barcha javoblar to'g'ri
- |15 2-sinf ona tili yangi dasturi lug'aviy mashqlarida o'quvchilar nimalarni bajara olishlari belgilangan? (112-b)
1. so'zlarga so'roq bera olish 2. shu so'z nimani bildirishini ayta olish
3. lug'atlardan foydalana olish 4. qarama-qarshi ma'noli so'zlardan foydalanish
- |16 Bolalar dramaturgiyasiga katta hissa qo'shgan bolalar shoirini toping.
1. Shukur Sa'dulla 2. Tursunboy Adashboyev 3. Miraziz A'zam 4. Hakim Nazir
- |17 "Tulki bilan bo'ri" ertagi qaysi bo'lim bilan boshlanadi?
1. Ochko'z bo'ri 2. Tulki va qo'ychivon 3. Ko'mach 4. Tulkining o'ch olishi

|18 4-sinf “Matematika”fani yangi dasturida o‘quv yili oxirida o‘quvchilarga ko‘paytirish va bo‘lish yuzasidan qanday talablar qo‘yilgan? (177-b)

1. ko‘p xonali sonlarni og‘zaki
2. ko‘p xonali sonlarni bir va ikki xonali sonlarga
3. ko‘p xonali sonlarni uch xonali songa
4. ko‘p xonali sonlarni faqat ikki xonali songa

|19 Odobnoma fanini o‘qitishdan maqsad nima?

1. Odob-axloq qoidalarini o‘rgatish
2. O‘quvchilarni vatanni sevishtga o‘rgatish
3. Odob-axloq me‘yorlarini singdirish
4. Barcha javoblar to‘g‘ri.

|20 Aylananing radiusi 50 sm bo‘lsa, uning diametri necha dm bo‘ladi?

1. 100 dm
2. 50 dm
3. 25 dm
4. 10 dm

|21 Reyting tizimida DTSning bajarilish sharti qancha ballga teng?

1. 3 ball
2. 4 ball
3. 5 ball
4. 6 ball

|22 3-4- sinf o‘quvchilarining tekshirish diktantlari qanday tekshirilishi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

1. Xatolari ko‘rsatiladi lekin tuzatilmaydi
2. Xatolari ko‘rsatib, tuzatiladi
3. Xatolari ko‘rsatilmaydi
4. Xatolari ko‘rsatiladi va tuzatiladi

|23 Ikki piyoda bir vaqtda bir qishloqdan qarama-qarshi yo‘nalishda yo‘lga chiqdi va 3 soatdan keyin ular orasidagi masofa 33 km bo‘ldi. Agar piyodalardan birining tezligi 5 km/soat bo‘lsa, ikkinchisining tezligini toping.

1. 2 km/soat
2. 3 km/soat
3. 4 km/soat
4. 6 km/soat

|24 Qaysi buyuk allomalarimiz musiqa kuylari bilan bemorlarni davolaganlar?

1. A1-Xorazmiy va Ibn Sino
2. A.Jomiy va Ogahiy
3. Farobiy va Ibn Sino
4. Ogahiy va Ibn Sino

|25 O‘zbekistondagi qaysi viloyat aholi zichligi bo‘yicha eng oldingi o‘rinni egallaydi?

1. Andijon viloyati
2. Buxoro viloyati
3. Namangan viloyati
4. Toshkent viloyati

|26 I shaxs ko‘plikda kelgan gapni toping.

1. Menga shular haqida yozib yubor
2. Sen yozgan gapni oldim
3. Biz yangi yil uchun o‘yinchoq yasadik
4. Siz yaxshi keldingizmi?

|27 Avloniy 1878-yili tavallud topdi va 1934-yili vafot etdi. Avloniy nechanchi asrda tug‘ilgan va necha yil umr ko‘rgan?

1. XIX asrda tug‘ilgan 51 yil yashagan
2. XIX asrda tug‘ilgan 52 yil yashagan
3. XXI asrda tug‘ilgan 50 yil yashagan
4. XIX asrda tug‘ilgan 56 yil yashagan

|28 “Kitobim – oftobim -2”da Temur haqida berilgan rivoyat nomini toping.

1. “Jayxundan o‘tish”
2. “Temur va shahzoda”
3. “Temur-johongir”
4. “Oqsaroy haqida afsona”

|29 Javondagi kitobning 7 dan 3 qismi 42 dona. Jami qancha?

1. 98
2. 96
3. 97
4. 88

|30 Avtomobil asfaltlangan yo‘lda 2 soatda 90 km/soat tezlik bilan tosh yo‘lda 3 soat 70 km/soat tezlik bilan yurdi. Avtomobilning o‘rtacha tezligini toping.

1. 78 km/soat
2. 68 km/soat
3. 88 km/soat
4. 50 km/soat

26-variant

|1 Berilgan she'riy misrada nechta fe'l so'z turkumi bor?

Ayni yoz – saraton chog',
Suluvlangan dala, bog'.
Yiltillagan husaynga boq,
Donasidan go'yo bol tomar.

1. 4 ta 2. 3 ta 3. 2 ta 4. 5 ta

|2 “Kishining go'zalligi uning tilidan bilinur”.

Berilgan gapdan egani aniqlang.

1. Kishining 2. Uning 3. Tilidan 4. Go'zalligi

|3 Berilgan gaplarning qaysi birida undalma ishtirok etgan?

1. Kitob, daftaringizni toza tuting 2. Kitob, mening do'stimsan
3. Kitob bilim manbai 4. Kitob, daftar – o'quv quroli

|4 Burun undoshlari ishtirok etgan qatorni toping.

1. r, p, m 2. b, p, f 3. m, n, ng 4. k, q, g, g'

|5 Qaysi qatordagi maqolda antonim so'zlar ishtirok etgan?

1. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh 2. Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi
3. Mehnat baxt keltirar 4. Ona bilan bola – gul bilan lola

|6 Quyidagi gapni sintaktik tahlil qiling.

Akmalning xati sinfimizda saqlanyapti.

1. Aniqlovchi – ega – to'ldiruvchi – kesim 2. Ega – to'ldiruvchi – aniqlovchi – kesim
3. Ot – ot – ot – fe'l 4. Ega – aniqlovchi – to'ldiruvchi – kesim

|7 O'quvchilarni 6-7 yoshdan maktabga qabul qilish qaysi hujjatda ko'rsatilgan?

1. Kadrlar tayyorlash «Milliy dasturi»da; 2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda; 3. DTSda; 4. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida;

|8 O'zbekiston pilla yetishtirishda dunyoda nechanchi o'rinda?

1. AQShdan keyin ikkinchi 2. Yaponiya va Xitoydan so'ng uchinchi
3. AQShdan keyin to'rtinchi 4. AQShdan keyin birinchi

|9 Xo'jalikda 120 sr xashak tayyorlandi. Sigirlar uchun hamma xashakning $\frac{1}{3}$ qismi, otlar uchun $\frac{1}{10}$

qismi, qolgani qo'ylar uchun ajratildi. Qo'ylar uchun qancha xashak ajratilgan?

1. 40 2. 68 3. 52 4. 78

|10 Sanjarning yoshi buvisining yoshidan 8 marta kichik. Sanjarning otasi buvisidan ikki marta kichik.

Agar Sanjarning buvisi 64 yoshda bo'lsa, bola va otaning yoshlari nechada?

1. 8 va 32 yoshda 2. 7 va 36 yoshda 3. 12 va 44 yoshda 4. 8 va 34 yoshda

|11 1 km^2 qaysi qatordagi ifodaga teng?

1. $1\,000\,000 \text{ m}^2$ 2. 100 dm^2 3. $10\,000 \text{ sm}^2$ 4. $100\,000 \text{ m}^2$

|12 Berilgan $750 - x = 19 * 7$ tenglamani javobi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. 133 2. 143 3. 617 4. 671

xtakomillashtirilgan davlat talabi bo'yicha kimning fikrlarini bilish ta'kidlagan?

1. Buyuk allomalarimizning 2. Ota-onalarning
3. Sharq pedagogikasi vakillarining 4. Yurtboshimizning

|14 Boshlang'ich ta'limning yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti (DTS) va modernizatsiya qilingan dasturlari qayerda va qachon chop etilgan?

1. "Ma'rifat" gazetasida, 2004-yil 2. "Boshlang'ich ta'lim" jurnalida, 2005-yil
3. "Xalq ta'limi" jurnalida, 2005-yil 4. "Ta'lim taraqqiyoti" axborotnomasida, 1999-yil

|15 1-sinf "Ona tili" fani yangi dasturining mualliflari to'g'ri keltirilgan qatorni toping. (71-b; 20-b.)

1. Q.Abdullayeva, K.Nazarov, K.Qosimova
2. Q.Abdullayeva, R.Safarova, T. G'afforova
3. Q.Abdullayeva, S.Fuzailov, M.G'ulomov

4. Q.Abdullayeva, K.Nazarov, S.Fuzailov

|16 “O‘qish” darsliklariga qaysi shoir yoki yozuvchining matnlari ko‘p kiritilgan?

1. Quddus Muhammadiyning
2. Po‘lat Mo‘minning
3. Safar Barnoyevning
4. Anvar Obidjonning

|17 Sinf dan tashqari o‘qishning maqsadi nima? O‘quvchilarni ...

1. kitobxon qilib tarbiyalash
2. badiiy matnlar bilan tanishtirish
3. qiziqarli kitoblar o‘qishga undash
4. ularda kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish

|18 Yangi dastur bo‘yicha boshlang‘ich matematika kursining asosini nimalar tashkil etadi? (136-b; 33-b)

1. Jadval hollaridagi hisoblash malakalari
2. To‘rt arifmetik amal
3. Og‘zaki va yozma hisoblash usullari
4. Barcha javob to‘g‘ri

|19 Afsona nima?

1. Afsona g‘ayritabiiy kuchlar ishtirokida yaratilgan xalq ijodi
2. Afsonada yo‘q narsalar ishtirok etadi
3. Afsonani xalq yaratadi
4. Ertaklar asosida

|20 Diametri 8 sm bo‘lgan doiraning radiusi nechaga teng?

1. 2 sm
2. 4 sm
3. 6 sm
4. 10 sm

|21 Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qaysi moddalarida reyting tizimini joriy etish tavsiya etilgan?

1. 42 va 26
2. 22 va 47
3. 22 va 44
4. 46 va 22

|22 2-sinfda nechta so‘zdan lug‘at diktant olinadi?

1. 8 so‘zdan
2. 10 so‘zdan
3. 12 so‘zdan
4. 6 so‘zdan

|23 Vertolyot 2 soatda 430 km masofani bosib o‘tdi. Tezligi undan 3 marta ortiq bo‘lgan samolyot 5 soatda qancha masofaga uchadi?

1. 645 km
2. 430 km
3. 3225 km
4. 2225 km

|24 Mehnat ta‘limining maqsadini aniqlang. O‘quvchilarga ...

1. Kasblar texnologiyasini o‘rgatish
2. Mehnat jarayonlarini o‘rgatish
3. Kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratish
4. Barcha javob to‘g‘ri.

|25 DTS bo‘yicha o‘quvchi ufqning asosiy tomonlarini nima bilan aniqlash malakasiga ega bo‘lishi kerak?

1. Quyoshga, oyga, suvning oqishiga qarab
2. Oyga, kompasga qarab;
3. Quyoshga, shamolga, kompasga qarab;
4. Quyoshga, mahalliy belgilarga, kompasga qarab;

|26 O‘zakning ta‘rifi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

1. Bir o‘zakdan hosil bo‘lgan so‘zlar
2. O‘zakka qo‘shilib, yangi ma‘no hosil qiladigan so‘zlar
3. So‘zning tub ma‘nosini bildirib, ma‘noli bo‘laklarga bo‘linmaydigan qism
4. So‘zlarning o‘zagiga yasovchi qo‘shimcha qo‘shish bilan hosil bo‘ladigan qismi

|27 M.Behbudiy 1875 yil tug‘ilgan va 1919 yil vafot etgan. U nechanchi asrda tug‘ilgan va necha yil umr ko‘rgan?

1. XIX asrda tug‘ilgan 51 yil yashagan
2. XVII asrda tug‘ilgan 52 yil yashagan
3. XIX asrda tug‘ilgan 44 yil yashagan
4. XVII asrda tug‘ilgan 52 yil yashagan

|28 «Kitobim-oftobim-1» (Toshkent)ni kimlar tuzishgan?

1. B.Ma‘qulova, S.Matjon
2. B.Ma‘qulova, R.Jo‘raqulov
3. B.Ma‘qulova, T.Adashboyev
4. B.Ma‘qulova, Sh.Hakimova

|29 Bitta sigir bir sutkada 16 l sut beradi. Bir hafta (7 kun) davomida 10 ta shunday sigirdan qancha sut olish mumkin?

1. 1120 l
2. 1000 l
3. 1210 l
4. 1240 l

|30 Bog‘da 24 tub olma, olmadan 2 marta ko‘p nok, nokdan 20 tup kam o‘rik bor. Bog‘da necha tup o‘rik bor?

1. 28 tup
2. 30 tup
3. 26 tup
4. 22 tup

27 variant

|1 Yorug' berar derazam,

Oynalari sinmasin.

Ozoda tutar har dam,

Chang va to'zon inmasin.

Quyidagi she'rda nechta fe'l so'z turkumi bor?

1. 2 ta 2. 4 ta 3. 3 ta 4. 1 ta

|2 Karimning do'sti Toshkent shahrida jurnalist bo'lib ishlaydi.

Qaysi so'z ega vazifasida kelgan?

1. Karimning 2. Do'sti 3. Toshkent 4. Shahrida

|3 Qaysi gapda undalma ishtirok etgan?

1. Bolalarni hayvonot bog'iga olib borishdi 2. Toshkent – ajoyib shahar

3. Yurak, mening sozimsan 4. Eh, kuz qanday ajoyib fasl!

|4 Qaysi qatordagi so'zlarda bo'g'in ko'chirish qoidasi buzilgan?

1. Si-ngil, de-ngiz 2. Daf-tar, aka-si 3. In-gliz, mao-rif 4. Ay-tin-giz, ko'n-gil

|5 Paronim so'zlar qaysi javobda berilgan?

1. Asr – asir, shoh – shox, zirak - ziyrak

2. Uzun, cho'zilgan, cheksiz, olis

3. Baland-past, uzun-qisqa

4. Oldi, yurdi, o'tirdi, yugurdi

|6 "Mustaqillik olloh bergan oliy ne'matdir". Gapning kesimini toping.

1. Mustaqillik 2. Ne'matdir 3. Oliy ne'matdir 4. Olloh bergan

|7 1-sinf savod o'rgatish davrida kuzatish, sayr va sayohatga qancha vaqt ajratilgan?

1. 2 haftada 1 marta; 2. 10 kunda 1 marta; 3. 1 oyda 1 marta; 4. Haftada 1 marta;

|8 Hayot qobig'i qanday nomlanadi?

1. Litosfera 2. Atmosfera 3. Troposfera 4. Biosfera

|9 Parrandachilik fermasida 930 ta parranda bor. Tovuqlar hamma parrandalarning $\frac{2}{3}$ qismini, g'ozlar

$\frac{1}{5}$

qismini, qolganlarini kurkalar tashkil etadi. Parrandachilik fermasida qancha kurka bor?

1. 155 2. 124 3. 310 4. 620

|10 Otasi 45 yoshda, o'g'li otasidan 9 marta kichik. O'g'li otasidan necha yosh kichik?

1. 36 yosh 2. 40 yosh 3. 5 yosh 4. 42 yosh

|11 Dinoraning dala hovlisi bo'yi 25 m 8 dm, eni 30 m 5 dm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklida.

Dala hovli yuzini toping.

1. $786 \text{ m}^2 90 \text{ dm}^2$ 2. 78691 dm^2 3. $78 \text{ m} 90 \text{ dm}$ 4. $786 \text{ m} 9 \text{ dm}^2$

|12 $x - 640 = 180 + 120$ Ushbu tenglamani javobini toping.

1. 300 2. 400 3. 500 4. 940

|13 Boshlang'ich ta'limga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni aniqlang.

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun 2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"

3. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi 4. Barcha javoblar to'g'ri

|14 DTS o'quvchilar bilimining qanday darajasiga qo'yiladi? (6-b)

1. Maksimal, yuqori darajasiga 2. Normal, o'rtacha darajasiga

3. Minimal, eng past darajasiga 4. Eng ilg'or o'quvchi bilimi darajasiga

|15 Boshlang'ich ta'lim "Ona tili" sohasiga qanaqa fanlar kiradi?

(72-b.)

1. Ona tili; O'qish, Imlo 2. Ona tili; Nutq o'stirish, Husnixat

3. Alifbe, Sinfdan tashqari o'qish, Savod o'rgatish. 4. To'g'ri javob yo'q.

|16 3- va 4-sinflar o'qish darslarining necha daqiqasi matnni o'qish va matn ustida ishlashga ajratiladi?

1. 20-25 daqiqasi 2. 25-30 daqiqasi 3. 28-32 daqiqasi 4. 30-35 daqiqasi

|17 Uchinchi sinfda kitoblar ko'rgazmasi qanday tartiblanadi?

1. mavzular asosida 2. janrlar asosida 3. mualliflariga qarab 4. rasmlariga qarab

|18 Yangi dastur bo'yicha Matematika kursi nimalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi? (136-b; 33-b)

1. Matematik munosabatlar bilan 2. Son bilan
3. Arefmetik amallar bilan 4. Geometriya elementlari bilan

|19 «Saloming bo'lmasa ikki yamlab bir yutardim» kimning so'zi?

